2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 254 (1315), 2024-yil 14-dekabr, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

IZCHIL VA QAT’IY ISLOHOTLAR TUFAYLI O‘ZBEKISTONDA BUTUNLAY YANGI “YASHIL” ENERGETIKA TARMOG‘I YARATILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 13-dekabr kuni yangi energetika quvvatlarini ishga tushirish hamda navbatdagilarini qurishga bag‘ishlangan tantanali marosimda ishtirok etdi.

Bular mamlakatimizda energetika tizimi barqarorligini oshirish bo‘yicha qilinayotgan keng ko‘lamli ishlarning davomidir. O‘tgan yili dekabrda 5 ta quyosh va 1 ta shamol elektr stansiyasi ishga tushirilgan edi. Davlatimiz rahbarining hududlarga tashriflarida ham ko‘plab loyihalarga asos solinmoqda.

Bu galgi marosimda umumiy qiymati 7 milliard dollardan ziyod 24 ta loyiha tayyorlangan. Xususan, Buxoro, Navoiy, Namangan va Toshkent viloyatlarida qariyb 2,3 ming megavatt quvvatga ega 5 ta quyosh va shamol elektr stansiyasi hamda 5 ta yuqori kuchlanishli podstansiya qurib bitkazilgan. O‘zbekistonda ilk bor Andijon va Farg‘onada 300 megavattli energiya saqlash tizimi barpo etilgan. Qashqadaryoda 400 megavattli elektr stansiyasi, Toshkent shahrida zamonaviy kogeneratsiya qurilmasi, Andijon, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida 4 ta kichik GES shay holatga keltirilgan.

Shuningdek, Farg‘ona, Samarqand, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida 2,5 ming megavattli 6 ta elektr inshooti qurilish arafasida.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISH VA INVESTITSIYAVIY SHERIKLIK LOYIHALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yangi energetika quvvatlarini ishga tushirish hamda navbatdagilarini qurishga bag‘ishlangan tantanali marosim doirasida Birlashgan Arab Amirliklari sanoat va ilg‘or texnologiyalar vaziri Sulton Ahmad Al-Jobir hamda energetika va infratuzilma vaziri Suhayl Muhammad Al-Mazruiydan iborat delegatsiya, Saudiya — O‘zbekiston Ishbilarmonlar kengashi raisi, “ACWA Power” kompaniyasi raisi Muhammad Abunayyan, Turkiyaning “Aksa Enerji” kompaniyasi raisi Jamil Kazanchini qabul qildi.

Birlashgan Arab Amirliklari sanoat va ilg‘or texnologiyalar vaziri Sulton Ahmad Al-Jobir hamda energetika va infratuzilma vaziri Suhayl Muhammad Al-Mazruiydan iborat delegatsiya bilan uchrashuvda amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish va investitsiyaviy sheriklik loyihalarini ilgari surish masalalari ko‘rib chiqildi.

Suhbat avvalida Sulton Al-Jobir davlatimiz rahbariga Amirliklar Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayon, mamlakat Bosh vaziri, Dubay Amiri Shayx Muhammad Ol Maktum va Vitse-prezidenti Shayx Mansur Ol Nahayonning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Uchrashuvda O‘zbekiston — BAA ko‘p qirrali munosabatlarining bugungi yuksak darajasi alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro tovar ayirboshlash hajmi, qo‘shma korxonalar va aviaqatnovlar soni oshmoqda. Birlashgan Arab Amirliklari yetakchi kompaniyalari ishtirokida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan va istiqbolli loyihalar portfeli 20 milliard dollarga yetdi.

“Yashil” energetika ikki tomonlama hamkorlikning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib xizmat qilmoqda. 13-dekabr kuni Navoiy viloyatida quvvati 500 megavatt bo‘lgan shamol stansiyasi ishga tushirildi — bu loyiha Masdar kompaniyasi tomonidan amalga oshirildi.

Umuman, ushbu kompaniya ishtirokida so‘nggi yillarda mamlakatimizda umumiy quvvati 1,5 gigavatt bo‘lgan elektr energiyasi ishlab chiqarish obyektlari ishga tushirildi.

Energetika, neft-gaz va kimyo tarmoqlari, tog‘-kon sanoati, suv ta’minoti, maishiy chiqindilarni qayta ishlash va boshqa yo‘nalishlarda yirik investitsiya loyihalarini tez fursatda tayyorlash va amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

Barcha darajalardagi samarali muloqotlarni davom ettirish va bo‘lajak oliy darajadagi tadbirlarga puxta tayyorgarlik ko‘rish muhimligi qayd etildi.

Saudiya — O‘zbekiston Ishbilarmonlar kengashi raisi, “ACWA Power” kompaniyasi raisi Muhammad Abunayyan bilan uchrashuvda Saudiya Arabistonining yetakchi kompaniyalari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekistonda “yashil” energetika sohasida strategik investor hisoblangan “ACWA Power” kompaniyasi bilan samarali sheriklik jadal rivojlanib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi. Bugungi kunga qadar umumiy qiymati qariyb 3 milliard dollarlik 4 ta loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilgan bo‘lib, joriy loyihalar portfeli 15 milliard dollarni tashkil etmoqda.

Bundan tashqari, bir qator qo‘shma loyihalarni ishga tushirish marosimi bo‘lib o‘tdi: Buxoro viloyatida quvvati 500 megavatt bo‘lgan 2 ta shamol elektr stansiyasi tarmoqqa ulandi, shuningdek, Samarqand viloyatida umumiy quvvati 1 gigavatt bo‘lgan 2 ta quyosh elektr stansiyasi va Toshkent viloyatida 334 megavatt quvvatga ega energiya saqlash tizimi qurilishiga start berildi.

Uchrashuvda energetika, transport va kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, to‘qimachilik sanoati, qishloq xo‘jaligi va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

Qo‘shma Ishbilarmonlar kengashi faoliyati doirasida Saudiyaning yetakchi kompaniyalarini mamlakatimizga jalb qilish borasidagi ishlarni kengaytirish muhimligi qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiyaning “Aksa Enerji” kompaniyasi raisi Jamil Kazanchini qabul qildi.

Ushbu kompaniya bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish masalalari, uning O‘zbekiston energetika tarmog‘ini kengaytirish va texnologik modernizatsiya qilish loyihalarida ishtirok etish rejalari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari Turkiya kompaniyasi bilan hamkorlikda Toshkent va Buxoro viloyatlarida umumiy quvvati 740 megavatt bo‘lgan zamonaviy elektr stansiyalarini qurish loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilganini mamnuniyat bilan qayd etdi. Qashqadaryo viloyatining Nishon tumanida quvvati 400 megavatt bo‘lgan yangi elektr stansiyasini ishga tushirish marosimi bo‘ldi.

Ikki tomonlama “yo‘l xaritasi”ga muvofiq “yashil” energetika sohasida, jumladan, gaz taqsimlash tizimlarini modernizatsiya qilish, biogaz stansiyalarini qurish, sanoat zonalarini energiya bilan barqaror ta’minlash va boshqa istiqbolli loyihalar muhokama qilindi.

O‘zA

YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY HIMOYA TAMOYILINING ASOSI – MEHR VA KO‘MAK TIZIMI XALQQA YAQINLASHTIRILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 13-dekabr kuni ijtimoiy himoya sohasidagi ishlar natijadorligi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston — ijtimoiy davlat. Konstitutsiyamizda mustahkamlangan ushbu tamoyil asosida mehr va ko‘mak tizimi aholiga yaqinlashtirilmoqda. Barcha hududlarda “Inson” markazlari ochilib, 102 ta ijtimoiy xizmat mahallalarda yo‘lga qo‘yildi. Ijtimoiy xodimlar uyma-uy yurib, shu yil reyestrda bo‘lmagan yana 95 ming muhtoj odamga yordam ko‘rsatdi. 51 ming nafar odamga nogironlik belgilandi, 26 ming nafari protez oldi. Yotib qolgan 4 ming yolg‘iz keksa aniqlanib, ularga uyining o‘zida parvarish tashkil etildi. Nogironligi bor 5 ming nafar bola bog‘cha-maktabga joylashdi.

Bunday manzilli ishlar tufayli xalq qabulxonalari va hokimliklarga ijtimoiy xizmat va yordam bo‘yicha murojaatlar 35 foiz kamaygan.

Uch oy oldin viloyatlar va tumanlardagi 14 ming rahbar 75 ming kambag‘al oilaga biriktirilib, ular bilan individual ishlash yo‘lga qo‘yildi. Natijada bu oilalardagi 17 ming odam doimiy ishga joylashtirildi, tadbirkorlik va tomorqa orqali 14 ming aholining daromadi oshirildi. 30 ming bola bog‘cha, to‘garak va kasbga o‘qitish bilan qamrab olindi, 45 ming muhtoj aholiga tibbiy yordam ko‘rsatildi.

Lekin ayrim joylarda ish to‘g‘ri tashkil qilinmagan holatlar ham bor. Masalan, 184 nafar rahbar o‘zi mas’ul bo‘lgan kambag‘al oila uyiga biror marta bormagan. Nogironligi bor shaxslarning bandligi darajasi respublikada 20 foizga yetgani bilan, Jalaquduq, Chimboy, Pastdarg‘om, Chortoq va Denov tumanlarida bu ko‘rsatkich ancha kam. Kelgusi yil Investitsiya dasturiga kiradigan 598 ta ijtimoiy muassasa loyihasi nogironligi bor odamlarga moslab ishlab chiqilmagan.

Yig‘ilishda shu kabi kamchiliklar ko‘rsatib o‘tilib, galdagi chora-tadbirlar muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirishga doir yangi tashabbuslarni aytdi.

Kelasi yil 1 million 200 ming aholini kambag‘allikdan chiqarish uchun ta’lim, to‘garak, kasb-hunar, tibbiyot masalalarini hal qilish va yashash sharoitini yaxshilash zarurligi ta’kidlandi.

Bu borada yaxshi tajribalar bor. Masalan, Toyloq va Kosonsoy tumanlarida “Ilk rivojlanish markazlari” ochilib, kambag‘al oiladagi va nogironligi bo‘lgan 4 ming 200 nafar bolaga bog‘cha ta’limi berilgan. Viloyat hokimlariga bu tajribani o‘rganib, har bir tumanda joriy etish topshirildi.

Shuningdek, kelasi yili kambag‘allik yuqori mingta mahallada yana bittadan oilaviy bog‘cha faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Yangi yildan oilaviy bog‘cha o‘rinlarining 15 foiziga kambag‘al oila farzandlari qabul qilinadi va bog‘cha to‘lovi qisman qoplab beriladi.

Kambag‘al oila farzandlarining o‘qib, hayotini o‘nglashi uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratiladi. Xususan, 118 ming yoshlar chet tili, axborot texnologiyalari va kasb-hunarga o‘qitiladi. Bu to‘garaklar xarajati 80 foizgacha budjetdan qoplanadi. 2025-yilda 3,5 ming nafar shunday farzandlar oliy ta’limga grant asosida qabul qilinadi.

Kambag‘al oilalardagi o‘zi harakatlana olmaydigan 23 ming nafar odamga ota-onasi, turmush o‘rtog‘i yoki bolalari qarab o‘tiribdi. Yanvardan ularning 19 mingiga uyida va 4 mingiga kunduzgi qatnov asosida qarash yo‘lga qo‘yiladi. Natijada bu bilan band bo‘lgan 15 ming aholining qo‘li bo‘shab, ishlashi mumkin bo‘ladi. Bunday xizmatni ko‘rsatgan xususiy sektorga oila xarajatining 80 foizini davlat to‘lab beradi. Bu tajriba avval Toshkent shahrida, viloyatlarda yil yakunigacha yo‘lga qo‘yiladi.

Davomi 2-betda

2030-yilga qadar yana 19 ming megavatt “yashil” quvvatlar barpo etilib, qayta tiklanuvchi energiya ulushi 54 foizga yetkaziladi. Xususan, 2025-yilda 3,4 ming megavattli 18 ta quyosh va shamol stansiyasi, 1,8 ming megavattli saqlash tizimlari ishga tushiriladi. Buning natijasida kelgusi yili “yashil” energiya ishlab chiqarish hajmlari 12 milliard kilovatt-soatga yetadi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 14-dekabr, 254-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

IZCHIL VA QAT’IY ISLOHOTLAR TUFAYLI O‘ZBEKISTONDA BUTUNLAY YANGI “YASHIL” ENERGETIKA TARMOG‘I YARATILDI

Boshlanishi 1-betda

Ushbu yangi loyihalar orqali kelgusi yillarda qo‘shimcha 9,5 milliard kilovatt-soat elektr ishlab chiqarilib, 2,5 milliard kub metr tabiiy gaz tejaladi, 4,6 million tonna zararli gazlar chiqishining oldi olinadi.

Eng muhimi, 4 milliondan ziyod xonadon uzluksiz toza energiya bilan ta’minlanadi. Bu iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham 4 milliard dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratishga turtki beradi.

Umuman, yurtimizda kelgusi yili jami 84 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Bu 2016-yilga nisbatan 25 milliard kilovatt-soat yoki 1,5 barobar ko‘pdir.

Marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zlab, bu loyihalarning barchasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobiga qurilayotganini alohida ta’kidladi. Shu munosabat bilan Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Xitoy va Germaniya kompaniyalariga, Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon bankiga hamkorlik uchun minnatdorlik bildirdi.

Mamlakatimizda xususiy sektorga keng yo‘l ochilgani natijasida oxirgi 5 yilda energetika sohasiga qariyb 20 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kirib kelgan. Avval to‘liq davlat tasarrufida bo‘lgan bu tizimda 24 ta mustaqil energiya ishlab chiqaruvchi faoliyat boshlagan.

Jumladan, “yashil” energetika sohasida 3,5 ming megavattli yoki 10 milliard kilovatt-soatga teng 16 ta yirik quyosh va shamol elektr quvvatlari ishga tushirildi. Buning natijasida joriy yilda tarmoqda “yashil” energiya ulushi 16 foizdan oshdi.

Ma’lumki, o‘tgan yili mamlakatimizning yalpi ichki mahsuloti ilk bor 100 milliard dollarlik tarixiy marrani zabt etdi. 2030-yilga borib, iqtisodiyotimiz hajmini 200 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Bu kelgusi 5 yilda yurtimizda elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojni hozirgidan 1,5 barobar oshiradi. Qolaversa, Parij bitimi doirasida 2030-yilgacha zararli gazlar emissiyasini 35 foizga kamaytirish mo‘ljallangan.

Shu bois, davlatimiz rahbari energetika sohasidagi navbatdagi rejalarga to‘xtalib o‘tdi.

Birinchidan, 2030-yilga qadar yana 19 ming megavatt “yashil” quvvatlar barpo etilib, qayta tiklanuvchi energiya ulushi 54 foizga yetkaziladi. Xususan, 2025-yilda 3,4 ming megavattli 18 ta quyosh va shamol stansiyasi, 1,8 ming megavattli saqlash tizimlari ishga tushiriladi. Buning natijasida kelgusi yili “yashil” energiya ishlab chiqarish hajmlari 12 milliard kilovatt-soatga yetadi.

Shuningdek, kelgusi 2 yilda xususiy tadbirkorlar bilan birga 2 mingdan ortiq kichik va mikro GESlar tashkil qilish bo‘yicha katta dastur amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, elektr energiya bozorini erkinlashtirish bo‘yicha navbatdagi qadamlar qo‘yiladi. Xususan, kelgusi yil yakuniga qadar raqobatli savdolar orqali elektr energiyasi ulgurji bozori yaratiladi.

Davlat-xususiy sheriklik taqsimlash tarmoqlariga ham joriy qilinib, ularni modernizatsiya qilish uchun 4 milliard dollar investitsiya jalb etiladi. Bu borada Samarqand hududiy elektr tarmoqlarini xususiy boshqaruvga berish bo‘yicha ilk loyiha ishlab chiqilib, xalqaro tender e’lon qilindi.

Uchinchidan, “yashil” energetika yo‘nalishida mintaqaviy va xalqaro hamkorlik kengaytiriladi. Bu borada birinchi amaliy qadamlar qo‘yildi — “COP29” doirasida Qozog‘iston, Ozarbayjon va saudiyalik hamkorlarimiz bilan “yashil” energiyani Yevropa mintaqasiga eksport qilish bo‘yicha bitim imzolandi.

Markaziy Osiyo elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun bir vaqtning o‘zida quyosh, shamol, suv kabi tabiiy resurslar bo‘yicha katta salohiyatga ega. Bu borada mintaqaviy energiya tizimi barqarorligini ta’minlash maqsadida qo‘shni davlatlar bilan yagona platforma ishga tushiriladi.

To‘rtinchidan, “yashil” energetika boshqa soha va tarmoqlarning rivoji, aholi turmush darajasi yaxshilanishi uchun yangi drayverga aylanmoqda. Xususan, aholi va tadbirkorlar tomonidan 1 ming megavattli quyosh panellari o‘rnatilib, yiliga 1,5 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi olinmoqda. Bunday ishlar izchil rag‘batlantirilishi, dual ta’lim asosida mutaxassislar tayyorlanishi aytildi.

— Bugungi tadbir yurtimiz energetika tarixida yangi sahifa ochadi. Ishga tushirilayotgan bu loyihalar orqali nafaqat iqtisodiy o‘sishga erishamiz, balki kelajak avlodlarimiz uchun yashil va barqaror O‘zbekistonning mustaqil poydevorini yaratamiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Marosimda Birlashgan Arab Amirliklarining energetika va infratuzilma vaziri Suhayl bin Muhammad al-Mazruiy, Turkiya Respublikasi energetika va tabiiy resurslar vaziri Alparslon Bayraktar, Saudiya Arabistoni Podshohligi energetika vaziri shahzoda Abdulaziz bin Salmon Ol Saud ham nutq so‘zladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ramziy dastakni bosib, 18 ta majmuaning faoliyati va 6 ta loyihaning qurilishini boshlab berdi.

O‘zA

YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY HIMOYA TAMOYILINING ASOSI – MEHR VA KO‘MAK TIZIMI XALQQA YAQINLASHTIRILDI

Boshlanishi 1-betda

Kambag‘al oiladagi 460 ming odam tibbiy yordamga, 6 mingta oila esa uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj. Shu bois, kelasi yili muhtoj odamlarning jarrohlik amaliyoti uchun Tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga qo‘shimcha 185 milliard so‘m ajratiladi. “Ijtimoiy daftarlar” mablag‘i esa kambag‘al oilalarning yashash sharoitini yaxshilash va daromadini oshirishga sarflanadi.

Hozirgi kunda fuqarolar ijtimoiy xizmat va yordam olish uchun 10 dan ortiq hujjatni olib yurishga majbur. Endi bularning o‘rnini bosadigan bitta — “ijtimoiy karta” joriy etiladi. U bilan jamoat transportida bepul yurish, elektr, gaz va o‘qish xarajatiga kompensatsiya olish mumkin bo‘ladi. Nafaqa va yordam pullari ham shu kartaga tushadi.

Bu tizim 1-iyulgacha Toshkent shahri va Yangiyo‘l tumanida sinovdan o‘tkaziladi, keyinchalik hamma joyda qo‘llanadi.

Yig‘ilishda nogironlikning sabablari, ularga yordam berish masalalari tahlil qilindi. 33 ta tumanda nogironligi borlarni reabilitatsiya qilish qamrovi juda kamligi ko‘rsatib o‘tildi.

Shu bois, har bir viloyat va tuman shifoxonasida reabilitatsiya xizmatlari yo‘lga qo‘yilishi belgilandi. 12 ta nogironlik reabilitatsiya markazida ergoterapiya, fizioterapiya, davolash-gimnastika xizmatlari qamrovi 5 karra oshiriladi. 7 ta tibbiyot oliygohida reabilitatsiya kafedralari ochiladi, professor-o‘qituvchilar Koreya tajribasi asosida qayta o‘qitiladi. Respublika reabilitatsiya markaziga Koreya va Yaponiyadan ekspertlar olib kelinib, mutaxassislar malakasi oshiriladi.

Nogironlikning ayrim turlarida uy sharoitida bajarsa bo‘ladigan mashqlarni o‘rgatish orqali ham bemor sog‘lig‘ini tiklash mumkin. Shuning uchun ularga shunday mashqlar dasturi va sog‘lom ovqatlanish menyusi tarqatiladi. Endi reabilitatsiya samarasi nogironligi borlarning harakati va muloqotidagi o‘zgarishga qarab baholanadi, shundan kelib chiqib shifokorlarga ustama beriladi.

Bugunga kelib, nogironligi borlarga beriladigan protez va reabilitatsiya vositalari ro‘yxati 18 tadan 30 taga, mablag‘i esa 1,5 barobarga oshirildi. Buning evaziga yil boshidan 100 ming odamning ehtiyoji ta’minlandi.

Endi bunga yana 7 turdagi vositalar qo‘shilishi ma’lum qilindi. Bu orqali 2025-yilda 80 ming muhtoj odamga zarur protez vositalari yetkazib beriladi.

Yaratilgan imkoniyatlar hisobiga bu yil tadbirkorlar nogironligi bor 40 ming fuqaroni ishga olgan. Buni yanada kengaytirish uchun 1-yanvardan nogironligi bo‘lgan ishchilar uchun ijtimoiy soliq 1 foiz etib belgilandi.

Korxonalarga surdo-tarjimon, psixolog va ko‘zi ojizlarga hamrohlik xizmati xarajati uchun 50 million so‘mgacha subsidiya ajratiladi. Bunday odamlarni ishga joylagan xususiy bandlik kompaniyalariga 500 million so‘mgacha grant beriladi. Bu imkoniyatlar natijasida yana 80 ming nogironligi bor odamni ish bilan ta’minlash mumkinligi aytildi.

Og‘ir vaziyatga tushib qolgan bo‘lsa-da, o‘zida kuch topib, hayotini o‘zgartirgan matonatli insonlar oramizda ko‘p. Ularni boshqalarga o‘rnak qilib ko‘rsatish, qahramonligi haqida hujjatli va badiiy filmlar suratga olish kerakligi ta’kidlandi.

Dunyoda nogironligi bor insonlarga to‘g‘ri keladigan 100 dan ortiq sport turi bor. Lekin bizda faqat 22 tasi bo‘yicha tibbiy xulosa beriladi.

Endi xalqaro andozalar asosida nogironligi borlarga tavsiya etiladigan sport turlari kengaytiriladi. Ularning bunga layoqati kasallik turiga qarab avtomatik belgilanadi. Bu yo‘nalishdagi sport murabbiylari oyligi 1-yanvardan 1,5 barobar oshiriladi. Hududlardagi 130 ta sport maktabi, 90 ta maxsus ta’lim muassasasi va 29 ta “Muruvvat” uyidagi maydonlar adaptiv sport turlariga moslashtiriladi.

Mutasaddilarga kelgusi yilda adaptiv sport qamrovini 1,6 barobar oshirib, 45 ming nafarga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Nogironligi bor bolalarni ta’lim bilan qamrab olish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Shu maqsadda har bir tumanda bittadan bog‘chada inklyuziv ta’lim guruhi ochiladi. Harakati cheklangan bolalarning maktabga kelib-ketish xarajatining 75 foizini qoplash tizimi joriy qilinadi. 1-sentabrgacha 954 ta maktabda inklyuziv sinf tashkil qilinib, yana 1 ming 800 nafar nogironligi bor bolaning ta’limiga sharoit yaratiladi.

Bu yil Mehribonlik uylari va maxsus o‘quv muassasalaridan 300 nafar o‘g‘il-qiz oilaviy muhitga qaytgan. Ushbu tajriba asosida yana 500 nafar bolani mas’ullarga biriktirib, oilaviy bolalar uyiga va maktabga joylashtirish muhimligi aytildi.

Yig‘ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilar axborot berdi, ijtimoiy soha vakillarining takliflari eshitildi.

O‘zA

O‘ZBEKISTONDAGI YUQORI SARMOYAVIY SALOHIYAT, TINCHLIK VA BARQARORLIK, O‘ZBEK XALQINING DO‘STONA MUNOSABATI XORIJIY BIZNESNI O‘ZIGA FAOL JALB QILMOQDA

13-dekabr kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirokida energetika sohasida yangi quvvatlarni ishga tushirish va navbatdagi loyihalar qurilishiga start berish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida qiymati 3,7 milliard dollarlik 18 ta yangi quvvat ishga tushirilayotgani va navbatdagi 6 ta loyiha qurilishiga start berilayotganini energetika sohasidagi tarixiy voqea deb atadi.

O‘zbekistonda o‘zining investitsiyaviy loyihalarini amalga oshirayotgan xorijiy kompaniyalar rahbarlari va vakillari ushbu tadbir haqida fikr bildirar ekan, keyingi yillarda davlatimiz rahbari rahnamoligida yurtimizda yaratilgan mutlaqo yangi ishbilarmonlik muhitini alohida e’tirof etmoqda.

Muhammad Jamil Al-RAMAHIY,
Birlashgan Arab Amirliklarining “Masdar” kompaniyasi bosh ijrochi direktori:

— O‘zbekiston mintaqada iqtisodiy, investitsiyaviy va texnologik taraqqiyot markazi bo‘lish istagini namoyon etmoqda. Qayta tiklanadigan energiya sohasida yetakchi kompaniyalardan biri sifatida biz uchun ushbu tadbir tajriba almashish, hamkorlar topish va istiqbolli loyihalarni muhokama qilish uchun o‘ziga xos maydon yaratdi.

O‘zbekistonda jozibador investitsiyaviy muhit yaratish borasida katta sa’y-harakatlar qilinayotganini ko‘rib turibmiz. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, energetika, “yashil” iqtisodiyot kabi strategik muhim tarmoqlarni uzoq muddatli barqaror rivojlantirishga qaratilgan.

O‘zbekiston bilan hamkorligimiz har ikki tomonning ishonchi va qiziqishi yuksak ekanini tasdiqlaydi. “Masdar” kompaniyasi allaqachon qayta tiklanadigan energiya manbalari bo‘yicha qator yirik loyihalarda, jumladan, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurishda ishtirok etmoqda. Biz O‘zbekistonda “yashil” energetikani rivojlantirish uchun ulkan salohiyatni ko‘ryapmiz va mamlakat kelajagiga investitsiya kiritishda davom etishga tayyormiz.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston shunchaki bugungi kun bilan yashaydigan davlat emas. Uning Prezidenti esa kelajakni o‘ylaydigan, kelajak avlodlar uchun mustahkam poydevor qo‘yadigan, butun dunyoga uzoqni ko‘ra olish qobiliyatini namoyon etayotgan yetakchidir.

Ishonamanki, ushbu forum nafaqat yaqin yillarda o‘z natijalarini beradi, balki kelgusi o‘n yilliklar uchun mintaqaning energetik kelajagini ham shakllantiradigan yangi hamkorlik va tashabbuslar platformasiga aylanadi.

Muhammad ABUNAYYAN,
Saudiya — O‘zbekiston Ishbilarmonlar kengashi raisi, “ACWA Power” kompaniyasi boshqaruvi raisi:

— O‘zbekistonda kechayotgan ijobiy jarayonlar va erishilgan salmoqli natijalarning hech biri uzoqni ko‘ra oladigan davlat rahbarisiz amalga oshmagan bo‘lar edi. Prezident investitsiya loyihalarining muntazam kengayib borishiga doim katta e’tibor qaratib kelmoqda.

Bilasizmi, qayta tiklanadigan energiyaga o‘tish sohasi hamma davlatlar gapiradigan mavzu emas, ya’ni O‘zbekiston Prezidenti uzoqni ko‘ra olishi sababli aynan bu sohaga jiddiy e’tibor qaratmoqda. O‘zbekiston energiya almashinuvini amalga oshirish bo‘yicha butun dunyoga namuna bo‘layotir. Albatta, bu katta yutuq.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, kelgusida “yashil” energetika yo‘nalishi O‘zbekiston uchun katta investitsiyalar kiritiladigan sohaga aylanib boraveradi. “ACWA Power” kompaniyasi har doim O‘zbekistonning ishonchli hamkori bo‘lib kelgan va imkoniyatlari bilan O‘zbekiston Prezidentining “yashil” energiya strategiyasida o‘z hissasini qo‘shishni intiqlik bilan kutadi.

O‘ZBEKISTON SHUNCHAKI BUGUNGI KUN BILAN YASHAYDIGAN DAVLAT EMAS. UNING PREZIDENTI ESA KELAJAKNI O‘YLAYDIGAN, KELAJAK AVLODLAR UCHUN MUSTAHKAM POYDEVOR QO‘YADIGAN, BUTUN DUNYOGA UZOQNI KO‘RA OLISH QOBILIYATINI NAMOYON ETAYOTGAN YETAKCHIDIR.

Ahmad FAHAD,
Saudiya Arabistonining “ACWA Power” kompaniyasining Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha operatsiyalar rahbari o‘rinbosari:

— O‘zbekiston investorlarni qo‘llab-quvvatlovchi davlat ekanligiga bu yerdagi faoliyatim davomida guvoh bo‘lyapman. Davlatingiz rahbari boshchiligida barcha hukumat vakillari tadbirkorlar va investorlarga yaqindan ko‘mak bermoqda. O‘zbekistonda biznes qilish uchun yetarli salohiyat bilan bir qatorda, zarur sharoit, soliq va shu kabi tashkiliy tomondan ham yengilliklar yaratilgan.

Shu o‘rinda Saudiya Arabistonining O‘zbekiston bilan yaqin aloqalari ham kompaniyamiz faoliyatida muhim o‘rin tutmoqda. Umuman olganda, O‘zbekiston nafaqat bizning mamlakatimiz investorlari, balki butun dunyo sarmoyadorlari uchun katta investitsiyaviy imkoniyatlarni taqdim etishga qodir.

Liu XU,
Xitoyning “Shina national technical” kompaniyasi prezidenti:

— O‘zbekistonning Xitoy bilan yuqori dinamika asosida kechayotgan hamkorligi va do‘stona munosabatlari o‘z loyihalarimizni bu yerda ikkilanmay amalga oshirishga turtki bo‘lmoqda.

Davlatingiz rahbarining olib borayotgan siyosati, mavjud qonun-qoidalar va aholining tadbirkorlikka bo‘lgan ochiqligini alohida ta’kidlash kerak. Ayniqsa, so‘nggi yillarda O‘zbekiston biznes uchun yanada yaxshi manzilga aylanib bormoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida barqaror rivojlanish sohasida sezilarli o‘zgarishlar va yutuqlar qo‘lga kiritilganini ko‘ryapmiz. Mamlakat “yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun qulay ekotizim yaratish yo‘lida faol harakat qilmoqda.

Van XAO,
Xitoyning “China Datang Overseas Investment Co., Ltd.” Kompaniyasining Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi bozorni rivojlantirish bo‘yicha bosh direktori:

— Bugungi kunda ko‘plab davlatlar, jumladan, Xitoy, yirik xalqaro korporatsiyalar O‘zbekistonda xorijiy investisiyalarni jalb qilish uchun eng qulay sharoitlar yaratilgan deb hisoblaydi.

Faol islohotlar va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgani tufayli Xitoy kompaniyalarining O‘zbekiston bilan hamkorlikka qiziqishi sezilarli darajada oshdi.

Kompaniyamiz misolida aytishim mumkinki, o‘tgan yili biz 320 megavatt quvvatga ega quyosh elektrostansiyasini qurishga investitsiya kiritishni boshladik. Kelgusi yilda 1 gigavatt quvvatga ega shamol stansiyasi loyihasi ustida ish boshlashni rejalashtiryapmiz.

Bu loyihalar, bizning fikrimizcha, O‘zbekistonning eng istiqbolli tarmoqlaridan biri bo‘lgan “yashil” energetikani rivojlantirishga qaratilayotgan e’tiborni aks ettiradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida barqaror rivojlanish sohasida sezilarli o‘zgarishlar va yutuqlar qo‘lga kiritilganini ko‘ryapmiz. Mamlakat “yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun qulay ekotizim yaratish yo‘lida faol harakat qilmoqda.

Shuningdek, biz hozirda energetika sohasini rivojlantirishda navbatdagi muhim qadam bo‘ladigan GESlar qurilishiga investitsiya kiritish imkoniyatlarini o‘rganyapmiz.

Bugungi tadbir nafaqat 2024-yilning ajoyib yakuni, balki 2025-yilda yangi investitsiya loyihalari va yutuqlari uchun boshlanish nuqtasidir. Ishonchim komilki, energetika sohasi O‘zbekistonda yanada rivoj topadi va kelgusi yillarda iqtisodiy o‘sishning asosiy omiliga aylanadi.

Ali Nihat DILEK,
Turkiyaning “iLTEKNO” kompaniyasi bosh direktori:

— O‘zbekistonda loyihalarni amalga oshirishni boshlaganimizga olti yil bo‘ldi va hozirgi kunda 15 ta loyihani rejalashtiryapmiz. Bilasizmi, men bir narsani alohida aytib o‘tmoqchiman, bizning ilk loyihamizni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ochib bergan edi. Bugun bizning rejaga asosan, so‘nggi loyihamizning ochilishi ham davlat rahbari tomonidan amalga oshirildi.

Bunda ham ramziy ma’no bor, ya’ni bu davlat rahbari investitsiya loyihalarini boshidan oxirigacha qo‘llab-quvvatlashining ifodasidir deb o‘ylayman. Bizga O‘zbekistonda ishlash yoqadi. O‘zbekistonning investitsiyaviy salohiyati yuqoriligi bilan bir qatorda, mamlakatdagi tinchlik va xavfsizlik, iqtisodiyotning barqarorligi va bu yurtning odamlari bizni doim o‘ziga jalb qiladi. Shuningdek, O‘zbekistonning tashqi siyosatidagi dunyo davlatlari bilan do‘stona aloqalari ham uni yanada kuchli qilmoqda deyish mumkin.

“Dunyo” AA

Shaharsozlikni rivojlantirishda “yashil” texnologiyalarni ko‘proq qo‘llash tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tejashga yo‘l ochadi. Masalan, an’anaviy elektr energiyasi o‘rniga quyosh panelini ishlatish, energiyatejamkor qurilish materiallaridan foydalanish odamlarning kundalik xarajatini ham kamaytiradi. Qolaversa, ularning ekologiyaga zararli ta’siri deyarli kuzatilmaydi. Shuning uchun odamlarning o‘zida ham “yashil” hududlarda yashash istagi ortib boryapti.

2025-yil — Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili

“YASHIL” SHAHARSOZLIK

qurilish loyihalarida asosiy talabga aylanmoqda



Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Toshkent shahridagi ekobozorlarning biriga yo‘lim tushdi. Katta, zamonaviy, qishda issiq, yozda salqin, xullas, ortiqcha urinmasdan, xotirjam bozorlik qiladigan savdo maskani. Haybatidan katta bir dam olish joyi deb ham o‘ylab qolasan kishi. Bu yerda mahsulotlarning xilma-xilini topish, cho‘ntakka qarab savdo qilish mumkin. Asosiysi, mahsulotlar maxsus idishlarda, toza-ozoda holda saqlanib, ekologik talablarga mos holda rastalarga terib qo‘yilgan.

Yurtimizda tobora ko‘payib borayotgan ana shunday zamonaviy savdo maskanlari, oldingilaridan tubdan farq qiladigan turar joy majmualari, dam olish va istirohat bog‘lari, hatto yangicha gastronomik ko‘chalar mamlakatimizda qurilishlar sohasidagi islohotlarning yaqqol namunasiga aylanmoqda. Bunda, ayniqsa, “yashil” hududlarni ko‘paytirishga e’tibor qaratilayotgani odamlarning ko‘nglidagi ish bo‘lyapti. Qolaversa, zamon rivojlangani sari kishilarning didi ham, ehtiyoji ham o‘sib bormoqda. Shahar aholisining ekologik loyihalarga talabi ortmoqda, odamlar ko‘proq yashil maskanlarga intilyapti. Shunga yarasha yangi qurilishlarga, munosib sharoitlarga ehtiyoj tug‘ilyapti.

Joriy yilning 11-dekabr kuni davlatimiz rahbari qurilish va obodonlashtirish loyihalari taqdimoti bilan tanishar ekan, yangi loyihalarda “yashil” hududlarni ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratilishini ta’kidlagani ham bejiz emas. Xususan, Toshkent shahridagi Yunusobod dehqon bozori o‘rnida uch qavatli ekobozor qurish, uning yonida qo‘shimcha savdo markazi hamda zargarlik uyi barpo etish rejalashtirilgan. Poytaxtimizdagi Abdulla Qodiriy bog‘ida esa relyefdan to‘g‘ri foydalanib, yashil hududlar ko‘paytiriladi. Sayr va tomosha joylari, favvoralar, yangi planetariy quriladi. Sayyohlarni jalb qilish uchun gastro-xol tashkil etiladi. Bu Chorsu bozori, umuman, eski shahar bilan yanada uyg‘un bo‘ladi.

Ekologik muhit birlamchi omil, ammo...

Suhbatlarning birida yosh iqtisodchi Behzod Hoshimov “Bolalikdan nima uchun bizning davlat rivojlangan mamlakatlar qatorida emas, degan savolga javob izlab katta bo‘lganman”, deb aytgandi. Ochig‘i, Behzod bilan deyarli tengdoshmiz va meni ham doim shu kabi savollar qiynagan. Nega mamlakatimizda baland binolar deyarli yo‘q, hayotimizda katta o‘zgarishlar, taraqqiyot sezilmaydi, aksariyat yangi texnologiyalar bir necha o‘n yillar o‘tganiga qaramay, haligacha yurtimizga kirib kelmagan kabi savollarni o‘zimga ko‘p berardim. Go‘yo biz dunyoning bir chekkasida, taraqqiyotdan teskari tomonda yashayotgandek edik. Balki shuning uchun hozirgi ekologik va tabiiy resurslar kamayib borishi muammosi bizni unchalik ham bezovta qilmagandir.

Xo‘sh, mamlakatning rivojlanishi nima degani? Bu iqtisodiy o‘sish, aholi farovonligi oshishi, shunga monand barcha sohalarning taraqqiy etishi, yangi korxonalar, obyektlar qurilishi, zamonaviy ish, dam olish maskanlari ko‘payishi, mamlakatga kirib keluvchilar soni, demografik o‘sish ortishi va hokazo. Ana shunday o‘sish fonida tabiiy resurslardan foydalanish, ularga zarurat ortishi hamda bularning barchasi bevosita atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatishi ham bor haqiqat. Masalan, aholi soni ortgani sari transportlar harakati, ishlab chiqarish quvvati, energetika va boshqa manbalar iste’moli ham oshib boraveradi. Bu, ayniqsa, rivojlanish sur’ati nisbatan tez kechadigan shaharlarda ko‘zga tashlanadi.

Toshkent shahri bunga yaqqol misol. So‘nggi yillarda poytaxtdagi sezilarli o‘zgarish va rivojlanish tufayli atmosfera tobora ifloslanayotgani jiddiy muammolardan biriga aylandi. Bu asosan sanoat tarmoqlari, transportlardan chiqayotgan zararli gaz hisobiga ekani haqida tushunchaga egamiz. Ma’lumotlar ham shuni ko‘rsatyapti: poytaxtimiz havosi tarkibidagi zaharli moddalarning asosiy manbalari issiqlik tarmog‘i (28 foiz), transport (16 foiz) hamda sanoat (13 foiz) sohasiga to‘g‘ri kelyapti. Ularning har birini alohida tahlil qilib, atmosferaga ta’sirini raqamlar, aniq asoslar bilan keltirish mumkin. Ammo masalaning boshqa jihati bor. Sanoatni butunlay to‘xtatsak, qurilishlarga barham bersak, transport vositalari harakatini cheklab tashlasak, natija qanday bo‘ladi?! Taraqqiyotdan to‘xtash orqali o‘zimiz istagan musaffo havoga erisha olamizmi?

Hozir biz havas qiladigan rivojlangan davlatlarning aksariyati xuddi shu yo‘lni bosib o‘tgan. Jadal taraqqiyot yo‘li ekologiyaga jiddiy ta’sir ko‘rsatganini hech biri yashirmaydi. Rivojlanish yoki ekologiyani sof holda saqlab qolishdan birini tanlashning imkoni yo‘q. Vaholanki, taraqqiyotdan ortda qolayotgan davlatlar ham sayyoramizga tobora xavf solayotgan ekologik muammolardan xoli emas. Bunday sharoitda rivojlanishgina dolzarb masalada yangi, zamonaviy yechimlarni qo‘llashga yo‘l ochadi. Ilg‘or mamlakatlar tajribasi bunga misol. Bu borada eng yomon ko‘rsatkichli davlatlar ham yillar davomida qat’iy chora-tadbirlar ko‘rish orqali natijani yaxshilashga erishgan. Masalan, Kolumbiyaning Bogota shahri ifloslangan atmosferani yaxshilash bo‘yicha Lotin Amerikasida yetakchilik qilmoqda. Xo‘sh, mamlakat bu natijaga qanday erishdi? Avvalo, eski avtobuslardan voz kechib, o‘rniga yangi elektrobuslar qatnovi yo‘lga qo‘yilgan. Qolaversa, bu o‘rinda velosipedlar ham muhimligi ta’kidlanadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, shaharda har kuni 1 milliondan ortiq velosipeddan foydalaniladi va bu orqali har yili atmosferaga 16 ming metrik tonna karbonat angidrid yoki shunga o‘xshash zararli gaz chiqishining oldi olinadi.

> **Mutasaddilarning ma’lumotiga ko‘ra, o‘tgan davrda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, barqaror muhitni asrash borasida qonunchilik bazasi mustahkamlanib, energetika sohasida 2,6 gigavattli 9 ta quyosh va 1 ta shamol elektr stansiyasi ishga tushirildi. Bugun jami 1,7 gigavattli 5 ta quyosh va 2 ta shamol elektr stansiyasi qurilyapti.**

O‘zbekiston ham ana shu yo‘lni — rivojlanishdan voz kechmagan holda barqaror ekologik muhitga erishishni tanladi. Keyingi yillarda ekologik muammolarga qarshi harakatlar tobora faollashayotgani buning isboti. Davlatimiz rahbari nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo miqyosida ilgari surayotgan tashabbuslar zamirida atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, global iqlim o‘zgarishlariga jahon xalqlari bilan birgalikda moslashish va unga qarshi kurashishda sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirish maqsadi mujassam. Yurtimizda 2025-yilning “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilingani ana shu maqsad yo‘lidagi katta qadamlardan bo‘ldi. **Davlatimiz rahbari Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 32 yilligi munosabati bilan xalqimizga yo‘llagan bayram tabrigida ta’kidlaganidek, tabiatni asrash — bu insonni, kelajakni asrash demakdir.**

Bu yo‘lda har qanday harakat o‘zini oqlaydi. “Yashil” iqtisodiyotga faol o‘tayotgan O‘zbekiston amaliyotida, ayniqsa, ekologik va iqlim o‘zgarishlariga chidamli shaharlarni rivojlantirish dolzarb. Gap shundaki, mamlakatimizning 37,5 milliondan ortiq fuqarosining yarmidan ko‘pi shaharlarda istiqomat qiladi. 2050-yilga borib, shaharlar aholisi soni 25 milliondan oshishi prognoz qilingan. Bunday sharoitda odamlarning oshib borayotgan talablarini atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda qanoatlantirish uchun shahar infratuzilmasi, xususan, transport, energetika, chiqindilarni qayta ishlash kabi sohalarda tizimli islohot zarur.

— Shaharlarda “yashil” hududlarni barpo etishda jahon tajribasi faol o‘rganilib, xalqaro hamkorlikdagi yangi loyihalar ustida ishlanmoqda. Boisi, yurtimizda iqtisodiy o‘sish sur’atiga nisbatan shahar migratsiyasi jadallashgan. Bu esa aholining mehnat resurslari va davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatidagi farqni yuzaga keltirmoqda, — deydi iqtisodiyot va moliya vaziri o‘rinbosari Ilhom Norqulov. — Ushbu masalalar shahar xo‘jaligini boshqarish va rejalashtirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish vaqti kelganini anglatadi. Jarayonda shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan keng foydalanish, iqlim o‘zgarishining mahalliy aholi turmush tarzi va infratuzilmaga ta’siri kabi omillar rejalashtiriladi. Asosiy e’tibor “yashil” va iqlimga moslashuvchan shahar hamda hududlarni barpo etishga qaratilgan. Bu borada 2025-yil va undan keyingi davrda oldimizda muhim vazifalar turibdi. Birinchidan, dastlabki bosqichda kompleks rivojlantirish uchun har bir viloyatdan kamida bitta tuman yoki shahar tanlab olinib, yashil va ekologik barqaror turar joy massivlari, “yashil” mahallalarda istirohat bog‘lari hamda sohil bo‘ylari barpo etiladi. “Yashil” jamoat transportini rivojlantirish, sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish sohalarida “yashil” yondashuvlardan kelib chiqib, tadbirkorlik loyihalarini qo‘llab-quvvatlash va buning uchun zarur infratuzilma, sharoit yaratish ko‘zda tutilgan. Keyingi bosqich — 2025-yil ikkinchi yarmida orttirilgan tajribadan kelib chiqib, yana 30 ta tuman-shahar yuqoridagi yondashuv asosida rivojlantiriladi. Bundan tashqari, 2025-yilda hududlar va tarmoqlarda “yashil” hamda ekologik tamoyillarga rioya qilinishini rag‘batlantirish, hisobdorlikni kuchaytirishga qaratilgan monitoring tizimini bosqichma-bosqich joriy etishga kirishamiz. Sug‘orish va ichimlik suv ta’minoti hamda isitish tizimini institutsional jihatdan isloh qilish va resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha ishlarni jadallashtiramiz. Mazkur yo‘nalishdagi ishlarimiz Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar ishtirokida ishlab chiqilgan “Urbanizatsiya — 2040” konsepsiyasi loyihasi bilan uyg‘unlikda amalga oshiriladi.

136 ta master-reja ishlab chiqilyapti

“Yashil” shaharlarni barpo etish oson jarayon emas. Loyihani ishlab chiqishdan tortib, amalga oshirishgacha bo‘lgan ishlarning bari uzoq vaqt, puxta harakat va katta mablag‘ talab etadi. Ammo tobora murakkablashib borayotgan ekologik vaziyat qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirgan. Mamlakatimiz xalqaro hamkorlar bilan birga shu yo‘nalishdagi katta loyihalarni jadallashtirayotgani boisi shunda.

— Shaharlarni qurishda “yashil” texnologiyalar qo‘llanishi ko‘plab qulayliklarni vujudga keltiradi, — deydi Jahon bankining shaharsozlik, barqarorlik va yerdan foydalanish bo‘yicha global amaliyot bo‘limi menejeri Kristof Push. — Masalan, iqtisodiy samaradorlikni olaylik. Shaharlar zichlashtirilsa, xarajat tejaladi, ijtimoiy xizmatlar rivojlanadi. Masshtablashtirishdan unumli foydalanib, ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan choralarni ko‘rish mumkin. Bu sa’y-harakatlar O‘zbekiston uchun ham muhim. Chunki mamlakat mintaqadagi boshqa davlatlar kabi iqlim o‘zgarishlari ta’sirini seza boshladi va yaqin o‘n yillikdagi prognozlar bu xavflar ortib borishini ko‘rsatmoqda. O‘tgan yilgi tahlillarimizga ko‘ra, O‘zbekistonda 2030-yilgacha 8 million kishi iqlim xatari yuqori bo‘lgan hududlarda yashaydi. Boisi, mamlakatda yirik urbanizatsiya jarayoni kechmoqda va iqtisodiy jihatdan boyib borayotgan davlat uchun bu tabiiy jarayon. Biroq aniq sa’y-harakatlar orqali yuqoridagi xavfni 2050-yilgacha 90 foizgacha kamaytirish mumkin. Ya’ni rivojlanishning iqlimga salbiy ta’sirini kamaytirishga qaratilgan yirik loyihalar zarur. Bu borada O‘zbekistonning faol hamkorlaridan bo‘lib qolamiz. Birgalikda loyihalar ishlab chiqib, amaliyotga joriy etyapmiz. Yaqin yillarda bu boradagi tajribani boshqa davlatlar ham o‘rganib, qo‘llashi mumkin.

Bular — mamlakatimizning “yashil” iqtisodiyotga o‘tish yo‘lidagi sa’y-harakatlarining bir qismi. Yurtimizda mazkur harakatning faol bosqichi 2019-yilda boshlangan edi. Shundan buyon o‘tgan qisqa muddatda qator amaliy natijalarga erishildi. Mutasaddilarning ma’lumotiga ko‘ra, o‘tgan davrda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, barqaror muhitni asrash borasida qonunchilik bazasi mustahkamlanib, energetika sohasida 2,6 gigavattli 9 ta quyosh va 1 ta shamol elektr stansiyasi ishga tushirildi. Bugun jami 1,7 gigavattli 5 ta quyosh va 2 ta shamol elektr stansiyasi qurilyapti. Ammo vazifa faqat energetika tizimini isloh qilishdan iborat emas. Iqtisodiyotning har bir sohasi va tarmog‘i hamda boshqa yo‘nalishdagi ishlarni tashkil etishda “yashil” iqtisodiyotga moslashish asosiy tamoyilga aylanib ulgurdi. Xususan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi ko‘lami tobora kengayib bormoqda. Uy-joy va binolarni energiyatejamkor qilib qurish talabi kiritildi. “Yashil” jamoat transportidan foydalanish ko‘lami kengaymoqda. Mamlakatimizda elektromobil ishlab chiqarish va undan foydalanish bo‘yicha rag‘batlantiruvchi mexanizmlar joriy etildi.

Ana endi “yashil” mahallalar, “yashil” tuman-shaharlar barpo etish harakati boshlandi. Hududlarni rivojlantirish bo‘yicha dastur va master-rejalar ishlab chiqishda ham, eng avvalo, “yashil” tamoyillarni qo‘llash asosiy mezonga aylanmoqda. Bunday binolarni qurishda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda energiya iste’molini ta’minlash, iqlim xatarlariga javob beradigan qurilish materiallaridan foydalanish, uy-joy atrofida “yashil” va ekologik hududlarni ko‘paytirish kabi ko‘plab omillarga e’tibor qaratiladi. Bu borada jahondagi ilg‘or tajribalar o‘rganilayotgani yanada muhim.

— Hozir Buxoro, Farg‘ona, Namangan, Qashqadaryo, Toshkent, Jizzax, Samarqand viloyatlarida loyihalarni amalga oshiryapmiz, — deydi Turkiyaning “Studio Vertebra” loyihalash-shaharsozlik kompaniyasi direktori Mehmet Bektash. — Masalan, 2019-yilda tayyorlangan “Buxoro siti” loyihasini ishlab chiqishda ikkita asosiy masala ko‘tarildi. Birinchisi, Buxoroning 2000 yillik qadimiy tarixi, ikkinchisi, turizm yo‘nalishi. Loyihada eski shaharning bor tarixiy qiymatidan ilhomlanib, yangi shaharni barpo etishga harakat qildik. Hozir qurilish ishlari boshlangan va u yerda turar joylar, savdo markazlari, ijtimoiy obyektlar, mehmonxonalar, ilmiy institutlar bo‘ladi. Shuningdek, “yashil” hududlarga keng o‘rin ajratilgan.

Xalqaro hamkorlar bilan bir qancha yangi loyihalar bo‘yicha kelishuvlarga erishilgan. Xususan, hududlarda “yashil” tamoyillarga asoslangan kichik, o‘rta va bosh master-rejalar ishlab chiqilib, amalga oshiriladi. Germaniya xalqaro hamkorlik tashkiloti bilan 10 dan ortiq tuman va shaharda master-rejalar ishlab chiqilib, pilot loyihalar boshlangan. Shu kabi boshqa loyihalar uchun Yevropa Ittifoqi 7 million yevro, Shveysariya hukumati 2 million dollar, Osiyo taraqqiyot banki dastlabki bosqichda 700 ming dollar grant ajratgani ma’lum. BMT Taraqqiyot dasturi ko‘magida ham master-rejalar tayyorlanmoqda.

— Bugun yurtimizning 106 ta tuman va shahrida 136 ta master-reja ishlab chiqilyapti, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo‘lim boshlig‘i Shahobiddin Sharipov. — Ular to‘rtta yo‘nalishdan iborat bo‘lib, birinchisi 38 ta tumanda urbanizatsiyani rivojlantirish va aholiga qulay sharoit yaratishga qaratilgan master-rejalardir. Bunda ko‘proq shahar markazlari va shaharga tutash hududlardagi suv bo‘ylarini obodonlashtirish, aholining dam olishiga mo‘ljallangan “yashil” hududlar yaratishga e’tibor qaratiladi. Ikkinchi yo‘nalishda turizm maskanlari rivojlantiriladi. Hozir sayyohlik imkoniyatidan to‘liq foydalanilmayotgan yoki qulay infratuzilma yaratilmagan hududlar bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqilyapti. Uchinchi yo‘nalishda yo‘l bo‘yi, mahalliy va xalqaro avtomobil yo‘llarini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi. To‘rtinchi yo‘nalish chet ellik hamkorlar bilan ishlab chiqilayotgan master-rejalar bo‘lib, unda xorijning ilg‘or tajribasi o‘rganilib, amaliyotga joriy etilyapti.

Shaharsozlikni rivojlantirishda “yashil” texnologiyalarni ko‘proq qo‘llash tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tejashga yo‘l ochadi. Masalan, an’anaviy elektr energiyasi o‘rniga quyosh panelini ishlatish, energiyatejamkor qurilish materiallaridan foydalanish odamlarning kundalik xarajatini ham kamaytiradi. Qolaversa, ularning ekologiyaga zararli ta’siri deyarli kuzatilmaydi. Shuning uchun odamlarning o‘zida ham “yashil” hududlarda yashash istagi ortib boryapti.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Prezidentimizning 2023-yil 15-noyabrdagi “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 2024-2026-yillarda kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan kreditlar qoldig‘ini 1,7 barobar oshirish orqali bankning kredit portfelidagi ulush 28 foizdan 43 foizga yetkaziladi. 150 mingta kichik tadbirkorlik subyekti faoliyati yo‘lga qo‘yilib, kengaytiriladi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 14-dekabr, 254-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

2024-yil – Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili

Kichik biznes – bu mahallaga, tumanga yangi muhit olib kiradigan, odamlarimizga shijoat beradigan katta kuchdir.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

ISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV

bank va tadbirkorlar hamkorligini mustahkamlayapti

Shuhrat ORIPOV,
“Biznesni rivojlantirish banki” axborot xizmati rahbari

Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, kichik biznesni rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoit yaratish yangi O‘zbekiston taraqqiyotining eng ustuvor va asosiy yo‘nalishlaridan. Bu boradagi keng ko‘lamli islohotlar shundan dalolat beradi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham ilk bor qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaratish, mulk daxlsizligini ta’minlash, bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun qulay muhit yaratish bo‘yicha davlat o‘ziga aniq majburiyatlar oldi. 2024-yilning “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deya e’lon qilingani ishlarni jadallashtirib yubordi.

Biznes rivoji yo‘lidagi sa’y-harakatlar natijasida yangi O‘zbekistonda yangi tadbirkorlar sinfi shakllandi. Bugun har bir mahallada kamida 40-50 ishbilarmon bor. Ular minglab odamni doimiy ish bilan ta’minlagan.

Prezidentimizning tadbirkorlar bilan an’anaviy tus olgan ochiq muloqoti kichik biznesni manzilli qo‘llab-quvvatlash borasida ishchan muhit yaratishga xizmat qilmoqda. Mazkur uchrashuvlarda tadbirkorlar oyoqqa turib olishi, faoliyatini kengaytirishi uchun mutlaqo yangi yondashuvlar ilgari surilmoqda. Xususan, o‘tgan yilgi ochiq muloqotda soha vakillarini tadbirkorlikka o‘qitish, ularga loyiha tayyorlab berish, faoliyatini moliyalashtirish, mahsulotlariga bozor, biznesiga sherik topish bo‘yicha yaxlit ekotizim yaratish borasida muhim tashabbuslar bildirilgan edi. Davlatimiz rahbarining ATB “Qishloq qurilish bank”ni “Biznesni rivojlantirish banki”ga aylantirish tashabbusi moliya muassasasi faoliyati, ishlash uslubi va moliyalashtirish mexanizmlarining yangilanishiga puxta zamin yaratdi.

Prezidentimizning 2023-yil 14-sentabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturi tasdiqlandi. Biznesni rivojlantirish banki mazkur dastur ijrosini ta’minlash va muntazam takomillashtirib borish bo‘yicha asosiy tayanch bank etib belgilandi. Shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy va konsultativ qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator yangi dastaklar joriy etildi. Dasturni amalga oshirish uchun 2023-2026-yillarda davlat mablag‘i hisobidan 6 trillion so‘m va xalqaro moliya institutlarining 1,2 milliard AQSH dollari miqdoridagi mablag‘i yo‘naltirilishi belgilab qo‘yildi.

Aynan shu dastur asosida bank tomonidan hududlarda 14 ta Kichik biznesga ko‘maklashish markazi ta’sis etildi. Ularning asosiy vazifasi tashabbuskorlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga ko‘maklashish, o‘z hisobidan yangi loyiha qilmoqchi bo‘lgan tadbirkorlarni o‘qitish, yangi loyihalarga zarur mutaxassislarni jalb qilish, biznes vakillari uchun buxgalteriya, soliq, audit, marketing, huquqiy va boshqa konsalting xizmatlari ko‘rsatishdir. E’tiborli jihati, markazlarda o‘qigan tadbirkorlarning loyihasi eng qulay shartlar asosida moliyalashtiriladi. Pirovardida mamlakatimizda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha “uzluksiz xizmatlar zanjiri” yaratildi.

Natijalar — raqamlarda

O‘tgan qisqa muddatda bankimiz O‘zbekiston bank-moliya sektorida o‘z o‘rnini egallashga erishdi. Aholi orasida qiyofasini yarata oldi. Bank standart usullardan voz kechib, o‘z qadriyat va tajribasiga tayangan holda yangi sharoitga tezkor moslashib, moliya bozoridagi o‘rnini mustahkamlamoqda. Shuningdek, zamonaviy va qulay xizmatlarni joriy etish, xizmatlar tarkibini kengaytirish, mijozlar ishonchini qozonish hisobiga moliyaviy xizmatlar bozoridagi kuchli raqobat sharoitida faol ildamlamoqda.

Bugun Biznesni rivojlantirish banki 60 ta Bank xizmatlari ofisi va Bank xizmatlari markazlari orqali 1,6 milliondan ortiq mijozga xizmat ko‘rsatmoqda. Jumladan, jismoniy shaxs maqomidagi mijozlar soni 1,5 milliondan ortiqni va yuridik shaxs maqomidagi mijozlar soni 80 ming 300 tani tashkil etmoqda. Joriy etilayotgan yangi xizmatlar mijozlar soni muttasil oshib borishi va yuqori moliyaviy

ko‘rsatkichlarga erishishga imkon bermoqda.

2024-yil 1-dekabr holatiga ko‘ra, bankning umumiy kapitali o‘tgan yildagiga nisbatan 800 milliard so‘mga yoki 25,7 foiz oshib, qariyb 4 trillion so‘mga yetdi.

Bank aktivlari o‘tgan yilga nisbatan 23,1 foiz o‘sib, jami aktivlari qariyb 33,3 trillion so‘mni tashkil etmoqda. Bu o‘tgan yildagiga nisbatan 6,3 trillion so‘mga ko‘p. Daromad keltiruvchi jami aktivlar 29,5 trillion so‘mga yetib, o‘tgan yildagiga nisbatan 24,1 foiz o‘sgan yoki 5,7 trillion so‘mga oshgan. Daromad keltiruvchi aktivlarning jami aktivlardagi ulushi 88,5 foiz o‘sgan.

Depozit siyosati moliyaviy barqarorlik va ishonchlilikni ta’minlovchi omillardan. Shu bois, bank faoliyatida depozit siyosatining iqtisodiy maqsadga muvofiqligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, joriy yilning 11 oyida bankdagi banklararo depozitlar qoldig‘i qariyb 3 trillion 135 milliard so‘mga yetdi. Bu o‘sish 2023-yilning mos davriga nisbatan 1 trillion 55 milliard so‘mga ko‘payganini anglatadi. Bankning umumiy depozit bazasi 10,6 trillion so‘mdan oshib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,3 trillion so‘mga ko‘paygan va bu borada o‘sish 14,1 foizga teng bo‘ldi.

Bankning kredit qo‘yilmalari 2023-yildagiga nisbatan 1,9 foiz o‘sib, 22,6 trillion so‘mdan oshdi. Mijozlarga taklif etilayotgan qulay shartlardagi xizmatlar, soddalashtirilgan kredit amaliyoti, yuqori daromadli omonatlar, hisob raqamlarini ishonchli boshqarish barqaror rivojlanishda muhim omil bo‘lmoqda. Shu bo‘yicha 15 ta standart ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilindi. Bank xizmat ko‘rsatish ofislari va Bank xizmatlari markazlari faoliyati mijozlarga yo‘naltirilganlik modeli asosida tashkil etilmoqda. Natijada 24 mingdan ortiq yangi mijoz jalb qilindi. 184 ta valyuta ayirboshlash shoxobchasi orqali 650 ming jismoniy shaxsga xizmat ko‘rsatildi. 157 ta xalqaro pul o‘tkazmalari shoxobchasi orqali mijozlarga berilgan summa qariyb 308,6 million dollarni tashkil etdi.

Taklif etilayotgan omonatlarga qulayligi va ommabopligi sababli mijozlar ishonchi ortmoqda. Joriy yil 1-dekabr holatiga ko‘ra, bank omonatchilari soni 720 mingdan oshdi. Omonatlarni mobil ilova orqali masofadan rasmiylashtirish va boshqarish imkoniyati yaratilgani ayni muddao bo‘ldi.

Bankimiz mijozlar ishonchi oshishiga mos ravishda muntazam takomillashib bormoqda. Tizimda faol yangilanishlar va transformatsiya jarayoni kechmoqda. Bu sa’y-harakatlar bank erishayotgan barqaror moliyaviy ko‘rsatkichlarda o‘z ifodasini topmoqda.

Farovonlik yo‘lidagi harakatlar

Bank tomonidan iqtisodiyotning tayanch sohalarini tarkibiy jihatdan qayta qurish, iste’mol va eksport tovarlarni ishlab chiqarish hajmini oshirishga yo‘naltirilgan kredit siyosati yuritilmoqda. Mamlakatimizda kichik va o‘rta biznes korxonalarini rivojlantirish, xususiy tadbirkorlar sonini oshirish ustuvorligi hisobga olingan holda sarmoyalar ushbu sektorga yo‘naltirilmoqda.

Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali aholi bandligi ta’minlanib, farovonligi oshmoqda. Hududlarda yangi



ish o‘rinlari ochish va ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan biznes loyihalar faol moliyalashtirilmoqda.

Joriy yilning 10 oyida tadbirkorlik subyektlariga 4 trillion so‘mga yaqin kredit ajratildi. Yo‘naltirilgan mablag‘ning 46 foizi, ya’ni 1,8 trillion so‘mi tijorat kreditidir.

“Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturi doirasida 1,7 trillion so‘mdan ortiq kredit ajratildi. Bu ajratilgan jami kredit summasining 45 foizidir. Shuningdek, davlatning boshqa dasturlari asosida ajratilgan imtiyozli kreditlar miqdori 330 milliard so‘mni tashkil etdi.

Kredit mablag‘larining eng katta qismi korporativ mijozlarga tegishli bo‘lib, ularga 1,1 trillion so‘m sarmoya yo‘naltirilgan. O‘rta biznes vakillariga 371,7 milliard so‘m, kichik biznesga 612,9 milliard so‘m, mikrobiznesga 1 trillion 824 milliard so‘m kredit ajratilgan.

Shuningdek, tarmoqlar kesimida sanoatga 941,2 milliard so‘m, qishloq xo‘jaligiga 339,6 milliard so‘m, qurilishga 495,8 milliard so‘m, savdo va umumiy ovqatlanishga 857,5 milliard so‘m, transport va kommunikatsiyaga 63,2 milliard so‘m kredit yo‘naltirilgan. Bundan tashqari, boshqa sohalar uchun yana 1,2 trillion so‘m kredit taqdim etilgan.

Jismoniy shaxslarga taklif etilayotgan kreditlar qulayligi, ommabopligi, zamon talablariga mosligi bilan jozibador ko‘rinish kasb etmoqda. Hozir chakana biznes mijozlariga 29 turdagi kredit taklif etilmoqda. 2024-yil 1-dekabr holatiga ko‘ra, 62 mingdan ortiq chakana biznes mijozi uchun 2,1 trillion so‘mga yaqin kredit ajratildi. Buning natijasida chakana yo‘nalishidagi bank daromadi 21 foiz o‘sdi.

Mijozlarga bank mobil ilovasi orqali onlayn avtokredit, ta’lim krediti va mikroqarz olish imkoniyati yaratilgan. Bunda inson omilini cheklash, avtomatlashtirilgan skoring tizimi joriy etilishi evaziga kreditni ma’qullash uchun sarflanayotgan vaqt (Time to yes) 5-6 soatdan 30 daqiqagacha, kredit mablag‘ini ajratish (Time to money) uchun sarflanayotgan vaqt 3-4 kundan minimum 40 daqiqagacha (mikroqarz), maksimum 3-4 soatgacha (avtokredit) qisqardi.

Mijozlar talabidan kelib chiqib, “Biznesga birinchi qadam” kredit turi joriy etilishi orqali 317 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi. Buning natijasida 21 ming 388 fuqaroning ish bilan bandligi ta’minlandi.

> **“Bank aktivlari o‘tgan yilga nisbatan 23,1 foiz o‘sib, jami aktivlari qariyb 33,3 trillion so‘mni tashkil etmoqda. Bu o‘tgan yildagiga nisbatan 6,3 trillion so‘mga ko‘p. Daromad keltiruvchi jami aktivlar 29,5 trillion so‘mga yetib, o‘tgan yildagiga nisbatan 24,1 foiz o‘sgan yoki 5,7 trillion so‘mga oshgan. Daromad keltiruvchi aktivlarning jami aktivlardagi ulushi 88,5 foiz o‘sgan.”**

Tizim ham, uslub ham yangicha

Bank kichik biznesni moliyalashtirish bilangina cheklanayotgani yo‘q. Tadbirkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ishonchli hamkori bo‘lishga intilmoqda. Tashkil etilgan 14 ta Kichik biznesga ko‘maklashish markazida kichik biznes loyihalarini tanlash, tashabbuskorlarni o‘qitish, axborot bilan ta’minlash, biznes rejalar va texnik iqtisodiy asoslarni ishlab chiqish, bozor topish bilan bog‘liq kompleks xizmatlar ko‘rsatilmoqda. Buning uchun markazlar zarur shart-sharoitlar bilan ta’minlandi va zamonaviy jihozlandi.

Markazlar tomonidan tanlab olingan tashabbuskorlar biznes ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘nalishida qisqa va o‘rta muddatli amaliy o‘quv kurslarida o‘qitilmoqda. Yangi joriy qilingan tizim asosida shu kungacha 54 ming 901 tashabbuskor o‘qib, tegishli sertifikatga ega bo‘ldi.

Tadbirkorlikka o‘qitishga qaratilgan loyihalar ham tatbiq etilmoqda. Bu borada bank va Yaponiyaning Yamagata universiteti o‘rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi. Uning doirasida mamlakatimizdagi 10 mingga yaqin tadbirkorni o‘qitish maqsad qilingan.

Yaponiya universiteti professorlari mamlakatimiz hududlarida bo‘lib, tadbirkorlar bilan uchrashdi. Bu safarlar davomida 150 faol tadbirkor ishtirokida o‘quv kursi tashkil etildi. Keyingi bosqichda tadbirkorlar Yaponiyaning “u-hope” dasturi asosida o‘qitilmoqda. Ayni vaqtda 2 mingdan ortiq tadbirkor o‘quv jarayoniga jalb qilingan. Shuningdek, 500 ga yaqin tadbirkor o‘quv kursini tamomlab, sertifikat oldi.

Yaponiyalik mutaxassislar o‘quv dasturlari jarayonida muvaffaqiyatli qatnashgan tinglovchilardan 24 mentorni saralab oldi. Bu tinglovchilar dastlab O‘zbekistonda, keyingi bosqichda Yaponiyaning Yamagata universitetida malaka oshirdi. Rejaga muvofiq, xorijda malaka oshirib qaytgan har bir mentor 296 trener tayyorlaydi. Tadbirkorlarni o‘qitish jarayoni keyinchalik mazkur mentorlar tomonidan tashkil qilinadi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan joriy etilgan yangicha tizim dastlabki samarasini bera boshladi. Eng muhimi, hududlarda yangi tadbirkorlik subyektlari vujudga kelmoqda va minglab biznes loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Bular esa, o‘z navbatida, aholi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Maqsad aniq, intilish qat’iy

Bank o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni izchil amalga oshirishga qaratilgan strategik maqsadlarni belgilab olgan. 2024-yilda xalqaro miqyosdagi yetakchi konsalting kompaniya — KPMG bilan hamkorlikda Biznesni rivojlantirish bankining 2024-2026-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi ishlab chiqildi. Mazkur strategiyada to‘rtta asosiy maqsad belgilab olindi:

birinchisi, **kichik biznesga kompleks xizmatlar ko‘rsatishda birinchi raqamli bank** bo‘lish. Bank kichik biznes vakillariga turli moliyaviy va maslahat xizmatlari taklif qilish orqali ular faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi;

ikkinchisi, **biznes rentabelligi va aksiyadorlik kapitalini oshirish.** Bankning asosiy e’tibori mijozlar daromadini ko‘paytirish va o‘z resurslaridan samarali foydalanishiga qaratiladi;

uchinchisi, **innovatsion IT yechimlar** va yuqori operatsion samaradorlikni ta’minlash. Zamonaviy texnologiyalar bank operatsiyalarini tezlashtirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni soddalashtirishga yordam beradi;

to‘rtinchisi, **kuchli korporativ madaniyat** va aniq natijaga intiluvchi jamoani shakllantirish. Bank o‘z xodimlarining malakasini oshirish va motivatsiyasini kuchaytirish orqali korporativ madaniyatni mustahkamlashga intiladi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish orqali 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlari 27 trillion so‘mdan 62 trillion so‘mga va kapital 3,2 trillion so‘mdan 7,1 trillion so‘mga yetkaziladi.

Mijozlarga eng qulay hamda foydali shartlarda kreditlar taqdim etilishi natijasida 2026-yil yakuniga qadar bankning kredit portfeli 25 trillion so‘mga yoki 2,1 barobar oshib, 46,8 trillion so‘mga yetkaziladi. Depozitlar qiymati esa 12,2 trillion so‘mga yoki 2,3 barobar oshirilib, 21,6 trillion so‘mga yetkaziladi.

Bank oldida turgan muhim maqsadlardan yana biri 2027-yilgacha kichik va chakana biznes bozorida qamrovni oshirishdir. Jumladan, kichik biznes vakillari bo‘lgan faol mijozlar sonini 115,1 minggacha hamda bozorning 17,7 foizini, chakana biznesdagi mijozlar sonini 2,5 milliongacha oshirib, bozorning 16,7 foizini egallash belgilab olingan.

Shuningdek, kelgusida mijozlarning 75 foiziga onlayn xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yib, ularni faol mobil ilova va internet-banking foydalanuvchilariga aylantirish rejalashtirilgan.

Biznesni rivojlantirish bankining 2024-2026-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasida ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun 11 yo‘nalishda 70 dan ortiq tashabbus va 250 ga yaqin vazifa belgilangan. Shundan axborot texnologiyalarini rivojlantirish yo‘nalishida 27 ta tashabbus, inson kapitalini rivojlantirish yo‘nalishida 48 ta tashabbus, biznesni rivojlantirish bo‘yicha 83 ta tashabbus amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. Biznesni rivojlantirish bo‘yicha tashabbuslardan 39 tasi kichik, 44 tasi chakana biznes yo‘nalishida tatbiq etiladi.

Hozir strategik maqsadlarga erishish uchun muntazam izlanish olib borilmoqda. Buning uchun 11 ta Agile guruhi shakllantirildi va ular tomonidan mijozlar ehtiyoji hamda talabini qanoatlantirish uchun zamonaviy talablarga mos yangi kredit turlari joriy qilinyapti.

Prezidentimizning 2023-yil 15-noyabrdagi “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 2024-2026-yillarda kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan kreditlar qoldig‘ini 1,7 barobar oshirish orqali bankning kredit portfelidagi ulush 28 foizdan 43 foizga yetkaziladi. 150 mingta kichik tadbirkorlik subyekti faoliyati yo‘lga qo‘yilib, kengaytiriladi.

Kichik biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jami 800 million AQSH dollari miqdorigacha resurslar jalb qilish vazifasi yuklatilgan.

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB O‘zbekistondagi keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlarning faol ishtirokchisiga aylandi. Jamoaning muttasil izlanishi orqali bank faoliyati ham, ishlash uslubi va moliyalashtirish mexanizmlari ham yangicha bo‘lishiga erishilmoqda.

Kelgusida kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash eng ustuvor yo‘nalish bo‘lib qoladi. Bank bundan buyon ham yangi ish o‘rinlari ochish, aholi daromadini oshirish va jahon iste’mol bozorida raqobatbardosh eksportni ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni moliyalashtirishda faol ishtirok etadi. Shuningdek, xalqaro standartlarga mos, zamonaviy xizmatlarni taqdim qilish orqali moliya bozoridagi mavqeini yanada mustahkamlash va mijozlar ishonchini qozonishga intiladi.

Betob bo‘lsak, darrov antibiotik qo‘llaymiz. Ayni paytda inson organizmi antibiotikka ko‘nikib boryapti. Dori bir tomondan foyda bo‘lsa, ikkinchi tomondan inson tanasidagi foydali mikroorganizmni ishdan chiqarmoqda. Odamlarning immuniteti tushib ketyapti. Antibiotikka chidamlilik paydo bo‘layotgani tibbiyot oldiga yangi muammoni qo‘yyapti. Bu — eng katta tahdidlardan biri. Antibiotik bilan bog‘liq tahdid qurol-yaroq tahdididan ko‘ra xavfli.

Zamondosh

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, “El-yurt hurmati” ordeni sohibi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Shavkat SOLIHOV nomini ilm-fan solnomasiga zarhal harflar bilan yozish mumkin. Bioorganik kimyo fanining zabardast olimi bilan suhbatimiz o‘zbek ilm-fanining kechagi kuni, buguni va ertasi haqida bo‘ldi.

Esimda, uchrashuvda mamlakat taraqqiyotini ilm-fansiz tasavvur qilib bo‘lmasligi qayd etilarkan, nazarimda, yangi uyg‘onish davriga tamal toshi qo‘yildi. Fanlar akademiyasi faoliyatini tiklash va takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilgan bir qancha me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Bugungi kunda ular tom ma’noda ilm-fan sohasida o‘zgarish va yangilanishlarni amalga oshirishda, ilm-fan, ta’lim va iqtisodiyot tarmoqlari integratsiyasini ta’minlashda asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugun dunyo chin ma’noda yangi uyg‘onish davriga ehtiyoj sezmoqda. Turli mamlakatlarda bo‘layotgan notinchliklar, ma’naviy tanazzul holatlari ana shu ehtiyojni yuzaga keltirayotir. Hozirgi o‘ta murakkab vaziyatda dunyoni qutqarguvchi yagona najot ilm ekani tezkor zamonning silsilasida yanada ayon bo‘lib bormoqda. Bu o‘z-o‘zidan qayta uyg‘onmoq zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizda bu borada dadil qadamlar qo‘yilayotir. Ilm-fan, ta’lim, ma’naviyat, boringki, barcha sohalarga berilayotgan e’tibor samarasi

O‘ZBEKISTON ILM-FANIDA YANGI BOSQICH

U Uchinchi Renessans poydevori bo‘ladi

— Bugungi suhbatimiz milliy taraqqiyotimizda yangi bir davr boshlanishi arafasida bo‘layotganida ham o‘ziga xos ma’no bordek. Siz ziyoli, ilm odamisiz. Qolaversa, shu mashaqqatli yo‘lda ko‘p zahmat chekib, turfa davrlarni ko‘rgansiz. Shu bois, siz bilan suhbatlashish menga ham oson, ham o‘ziga xos mas’uliyat yuklaydi. Osonligi, sizda hayotiy xulosalar ko‘p, taqqoslash imkoni bor. Mas’uliyatli tomoni esa suhbatimiz o‘zanini tafakkur qilishdir. Lekin hozirdan ishonyapmanki, gurungimizda falsafiy ohang va fikrlar bo‘rtib turadi. Sababi, keyingi yillarda mamlakatimizdagi keng ko‘lamli tarixiy yangilanishlar har bir ziyoli fitratida o‘ziga xos evrilish hodisasini yuzaga chiqarmoqda.

Bu ham bejiz emas. Ulug‘ alloma az-Zamaxshariyning o‘z davrida “Har qanday mushkul ish aql egalari tufayli isloh qilinur”, deya qayd etgani asrlar o‘tsa hamki, o‘z qiymatini yo‘qotmagan o‘gitlardan. Faqat bunday tafakkur javohirlarini boshqaruv tizimiga singdirish uchun katta salohiyat, mahorat talab etiladi. Shu ma’noda, 2016-yil 30-dekabr kuni Prezidentimizning mamlakatimiz olimlari bilan ilk uchrashuvidan so‘ng har jabhada akademik fanga tayanib ish ko‘rmoq davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi, shunday emasmi?

— Esimni tanibmanki, ilm bilan mashg‘ulman. Ilm egallashga ishtiyoqim 20 yoshimda boshlangan bo‘lsa, demak, izlanishlarimga 60 yil bo‘libdi. Orqaga qararkanman, ilm bilan mashg‘ullik har qanday holatda ham mashaqqat emas, balki uning haqiqiy egalari uchun rohat ekaniga iqror bo‘laman.

Albatta, kashfiyot qilish, olimlik darajasiga yetish oson emas. Ba’zan izlanishlaringiz natijasi yarq etib ko‘rinadi, ba’zan mehnatlar besamar ketadi. Qayta-qayta urinaverasiz. Goh natija chiqib, ba’zan chiqmasligi mumkin. Ammo qachondir ko‘zlangan marraga yetasiz-ku.

Ilm ishlab chiqarish kuchi, zavod yoki fabrika emas. Qishloq xo‘jaligi ham emaski, ekin eksang, yarim yildan keyin uning hosilini olsang. Dunyo tajribasida bitta dori yaratish uchun kamida 10-12 yil kerak bo‘ladi. Dori yaratish ustida ko‘p ishlaysiz, umringiz, vaqtingiz ketadi, endi tayyor deganingizda bitta nojo‘ya ta’siri ayon bo‘ladi. Shunda 10 yillik mehnatingiz zoye ketadi. Albatta, xafa bo‘lasiz. Lekin tushkunlikka tushmaysiz. Yiqilgandan keyin qayta turmoq eng katta omad bo‘lsa kerak, izlanishda yana davom etasiz. 1995-yilda akademik unvoniga ega bo‘lganimda hali 50 yoshga ham kirmagan edim. Turli qiyinchiliklar, sharoit yo‘qligi ilmiy izlanishlarimizga monelik qilmagan. Maoshim haminqadar bo‘lib qolgan paytlarda ham sohani tashlab ketish xayolimga kelmagan.

2000-yillar boshidagi davr ilm-fan uchun juda murakkab va og‘ir bo‘lgan. Chunki xodimlarga maosh to‘lash uchun ham, reaktiv va uskunalar sotib olish uchun ham mablag‘ yetishmas edi. Olimlarning aksari sohani tark etgan, ilmiy-tadqiqot muassasalari huvillab qolgan paytlar yodimda.

Davlatimiz rahbari 2016-yilning so‘nggi kunlarida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi a’zolari bilan uchrashib, fan va ta’lim oldida turgan vazifalarni o‘rtaga tashlagan edi. Shundan so‘ng yillar davomida e’tiborsiz qoldirilgan, ma’muriy to‘siqlarga qaramay, mehnat qilayotgan minglab olim, tadqiqotchilar uchun qayta uyg‘onish davri boshlandi. O‘sha paytda men O‘zFA Prezidenti edim. Ungacha mavjud sharoit va qiyinchiliklar haqida yuqori tashkilotlarga ko‘p bor murojaat qilganman, ilm-fanga ahamiyat qaratishlarini so‘raganman.

Olimlar mehnatini qadrlash, ularga ilmiy izlanishlar uchun shart-sharoit yaratish, moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash borasida tizimli ishlar qilindi va bunday ezgu amallar davom ettirilmoqda. Aytish joiz bo‘lsa, so‘nggi 7-8 yil ichida O‘zbekiston ilm-fanida yangi bosqichga qadam qo‘yildi.

Yoshlarni chet ellarda stajirovka o‘tashi va ilmiy hamkorlik qilishi uchun budjet mablag‘lari hisobiga safarlarga yuborish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgani samarasini ko‘rsatdi. Natijada yoshlarning ilmiy faoliyatga jalb qilinishida sezilarli o‘zgarish kuzatilmoqda. Axir shular emasmi buyuk ajdodlarning munosib vorislari, orzu qilinayotgan Renessans asoschilari?! Safimizda yoshlarning ko‘pligi bir olim sifatida meni juda quvontiradi.

O‘tgan qisqa davr ichida Fanlar akademiyasi haqiqiy a’zoligiga ikki marta saylov o‘tkazildi. Yangi-yangi akademiklar kashf etildi.

O‘zbek olimlarining salohiyati hech kimdan kam emas. Bugun bor imkoniyat ishga solinmoqda. Ammo ilmiy izlanishlar samarasi darrov ko‘zga tashlanmaydi. Natija uchun bir oz vaqt kerak.

— Sizningcha, Uchinchi Renessans hodisasiga insoniyat bugun qanchalik ehtiyoj sezmoqda? Yurtimizda bu qutlug‘ jarayonning ilk hosilalarini nimalarda ko‘ryapsiz?

— Zaminimiz ikki buyuk uyg‘onish davriga beshik bo‘lgan. Allomalarimiz qoldirgan boy ma’naviy va ilmiy meros hali-hanuz dunyo ilm fani rivojiga xizmat qilib kelmoqda. Asrlar o‘tsa hamki, ularning nomi ehtirom bilan tilga olinadi. O‘z davrida ularni harakatga keltirgan yagona kuch insoniyat hayotini yaxshi o‘zanga burish, farovon va baxtli hayotga, jamiyat taraqqiyotiga erishish ehtiyojidir. Ana shu ehtiyoj qachonki insonning qalbida, vujudida ildiz otsa, o‘sha yerda misli ko‘rilmagan yangiliklar bo‘y cho‘zadi. Ijod qilinadi, kashfiyotlar yaratiladi. Davlatning ko‘rki — ilm. Bu isbot talab qilmaydi.

sezila boshlandi. Birgina ta’limni olaylik. Renessans davrida ta’limga e’tibor har tomonlama rivojlangan odamlarni dunyoga keltirgan. Bugun ana shuning uchqunlari sezilmoqda. Joriy yil boshidan buyon 122 nafar o‘g‘il-qizimizning xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgani bilan faxrlansak arziydi. Yoki yoshlarimizning bir necha xorijiy tilda erkin so‘zlashayotgani, dunyo tan olayotgan ixtirolar qila boshlaganini katta muvaffaqiyatlarga olib boradigan kichik qadamlar deya baholash mumkin. Bularning barchasi zamirida yaratilgan shart-sharoit, imkoniyat, muhimi, qat’iy iroda va mustahkam prinsip yotibdi desak xato bo‘lmaydi.

Renessans hodisasi yuz beryapti. Dunyoda ilm-fan jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgani, hatto bir kun, bir soat ortda qolish salbiy oqibatlarga olib kelishini yoshlar yaxshi tushunyapti. Ular katta tadqiqotlar ustida ishlayapti, ilm yaratishga intilmoqda. Shunga mos muhit yaratilayotganini e’tirof etish kerak. Ilm kishisini hech qachon har qanday natija ham qoniqtirmaydi. Agar qoniqsa, u o‘sishdan, yangilik yaratishdan to‘xtaydi. Ilm-fan har doim o‘rganishni, intilishni talab etadi.

Ilm — jamoaviy mehnat. Shu o‘rinda tinchliksevar tashqi siyosat, uzoq va yaqin davlatlar bilan do‘stlik aloqalari yaxshilangani ilm-fan rivojida muhim rol o‘ynayotganini ta’kidlashni istardim. Hech qaysi soha o‘z qobig‘iga o‘ralib rivojlana olmaydi. Shu ma’noda, xorijlik olimlar bilan hamkorlik natijalari sezilarli bo‘lishi shubhasiz.

Faoliyatim davomida xorijiy institutlar va Fanlar akademiyalari bilan ilmiy aloqalarni yo‘lga qo‘yishga harakat qildim. Xususan, Xitoy Fanlar akademiyasi bilan imzolangan kelishuv natijasida ushbu mamlakat olimlari bilan mustahkam va uzoq muddatli ilmiy hamkorlik o‘rnatildi. Bioorganik kimyo instituti, Sinszyan fizika va kimyo institutlarida xitoy va o‘zbek yosh mutaxassislari ilmiy stajirovka o‘tadi, dissertatsiya ishlarini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Men Xitoy Fanlar akademiyasi a’zoligiga qabul qilindim va 2017-yilda “Ilm-fan va texnologiyalar sohasida xalqaro hamkorlik” mukofoti bilan taqdirlandim. Ayniqsa, ushbu hamkorlik koronavirus pandemiyasi davrida yanada mustahkamlandi. Toshkentda Xitoy an’anaviy tibbiyot markazi muvaffaqiyatli ish boshladi. Uning mahsulotlari O‘zbekiston va Xitoyning shifobaxsh o‘simliklari asosida koronavirus infeksiyasini davolash uchun yangi preparatlar yaratishda katta hissa qo‘shdi.

Bugun yosh olimlarimiz Xitoy Fanlar akademiyasida izlanishlarni davom ettiryapti. Tinimsiz ishlayotgan, izlanayotgan salohiyatli yoshlar ilm-fan rivojiga poydevor qo‘yyapti. Ularning intilishlarida Uchinchi Renessans uchqunlarini hozirdan ko‘ryapman.

— Keyingi yillarda dunyo tarqoq holga kelmoqda. O‘zaro bog‘liqlikda rivojlanish maqsadlari yo‘qqa chiqyapti. Hatto fazoni qurol makoniga aylantirish harakatlari boshlangan. Albatta, bu katta inqiroz, fojia. Ammo shu o‘rinda yana bir mulohaza paydo bo‘ladi. Bunday murakkab davrda ilm-fan merosi kimga qoladi yoki u qanday maqsadlar sari yuzlanadi? Butun dunyo olimlari oldida qanday vazifalar turibdi?

— Dunyoning qaysi burchagida bo‘lmasin, olim — olim. Haqiqiy olim hech qachon insoniyatga yomonlikni ravo ko‘rmaydi. Birgina misol, COVID-19 pandemiyasini eslang. Yirik davlat rahbarlari ham pandemiya qarshisida esankirab qoldi. O‘rta hisobda yer yuzida taxminan 8 million odam koronavirusdan vafot etdi. Undan to‘rt baravar ko‘p odam pandemiya asorati tufayli olamdan o‘tdi. Olimlar kasallikka qarshi kurashishga kirishdi, samarador

dori-darmonlar, vaksinalar yaratildi. Pandemiyaga chek qo‘yildi. Kezi kelsa, insoniyatni inqirozga yetaklaydigan bunday pandemiyalar oldida fazoni qurol makoniga aylantirish harakatlari hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmay qoladi.

Xorijda do‘stlarim ko‘p. Ularning ilmiy kashfiyotlari bugun insoniyat hayotining yaxshi o‘zaniga xizmat qilayotganiga guvohman. Olimlarning o‘ziga xos ruhi bo‘ladi. Bu sof ruh faqat yaxshilikka tayanadi.

Dunyo olimlari oldida milliardlab vazifalar turibdi. Birgina koronavirus dunyo hayotini qay darajada o‘zgartirib yuborganini ko‘rdingiz. Atrofimizda bunday viruslar ko‘p va ular harakatda. Olimlarning ixtiro va kashfiyotlari tufayli ko‘plab virus, bakteriyalar xavfi hozircha hayotimizga daxl qilmay turibdi. Ammo ular istalgan vaqtda harakatga tushishi mumkin.

Betob bo‘lsak, darrov antibiotik qo‘llaymiz. Ayni paytda inson organizmi antibiotikka ko‘nikib boryapti. Dori bir tomondan foyda bo‘lsa, ikkinchi tomondan inson tanasidagi foydali mikroorganizmni ishdan chiqarmoqda. Odamlarning immuniteti tushib ketyapti. Antibiotikka chidamlilik paydo bo‘layotgani tibbiyot oldiga yangi muammoni qo‘yyapti. Bu — eng katta tahdidlardan biri. Antibiotik bilan bog‘liq tahdid qurol-yaroq tahdididan ko‘ra xavfli.

Ekologik muammolar har bir mamlakat uchun dolzarb. Global isish me’yordan oshsa, uni nazorat qilib bo‘lmaydi. Odamzod hech narsa qila olmaydi. Agar muzliklar jadal erisa, butun tabiat boyliklari suvning tagida qolib ketadi. Global isish bilan kurashishga monelik qiladigan minglab muammo bor. Dunyo olimlari oldida ana shu muammolarga yechim topish vazifasi turibdi.

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Ichimlik suv tanqisligi suvni tejash, rejalashtirib ishlatishni taqozo etadi. Bunday muammolar yuki esa, eng avvalo, navqiron olimlarga tushadi. O‘ylaymanki, ilm fanning munosib vorislari yetishib kelyapti va ular insoniyat hayotini yaxshi o‘zanga burib yuborishga qodir.

— Izlanishlaringiz natijasida 20 ga yaqin dori-darmon yaratilgan va tibbiyot amaliyotida qo‘llanilmoqda. Ular O‘zbekiston ilm-faniga nima berdi?

— Dunyoda har qanday fanning rivojlanishi bevosita ilmiy maktablar tomonidan muayyan sohada erishilgan ilmiy muvaffaqiyatlar, kashfiyotlar, muhim ilmiy natijalar, ularni yaratish, yangi qonuniyatlarni ochish, muayyan sanoat ehtiyojlari bilan bog‘liq. Bioorganik kimyo nisbatan yosh, ammo so‘nggi yillarda u farmatsevtika, sog‘liqni saqlash, tibbiy diagnostika, oziq-ovqat sanoati, qishloq xo‘jaligi va boshqa ko‘plab sohalarda dolzarb muammolarni hal qilishda yetakchi o‘rinni egallab kelmoqda. Ko‘plab e’tiborga molik tadqiqotlar natijalari bugun amaliyotda qo‘llanilyapti.

Misol uchun, virusga qarshi faollikni namoyon qiluvchi biologik faol birikmalarni ajratib olish va skrining qilish bo‘yicha tadqiqotlarda polifenol tabiatga ega biologik faol birikmalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri viruslarga, jumladan, OITSga qarshi ta’sir mexanizmlari, immunomodulyatorlik xususiyatlari ochib berildi.

Grippga qarshi yaratilgan “Rutan” preparatining COVID-19 pandemiyasi paytida SARS-2 virusiga qarshi faolligi Xitoy Fanlar akademiyasi olimlari bilan birgalikda o‘rganildi. Natijada “Rutan” preparati koronavirusning ikki muhim ferment tizimiga ta’sir ko‘rsata olishi va virus ko‘payishini to‘xtatishi mumkinligi aniqlandi. “Rutan” preparati bilan COVID-19 kasalligini davolash bo‘yicha keng miqyosda klinik sinovlar o‘tkazildi. Natija ko‘rsatdiki, hatto kasal o‘pkasining 30 foizi o‘z faoliyatini saqlagan bemorlarda “Rutan”ni qo‘llash bilan tuzalish yaqqol namoyon bo‘ldi. Shu bilan birga, bemorga qo‘shimcha kislorod berishga hojat qolmadi. “Rutan” preparatini qabul qilgan bemorlarda kasallikning keyinga asoratlari namoyon bo‘lmadi. Bu juda katta yutuq edi, chunki “Rutan” dunyoda koronovirusga qarshi yaratilgan preparatlar orasida tabiiylaridan biri edi va shu sababli uning kasallikdan keyingi asoratlari namoyon bo‘lmadi. Bu bizning katta yutug‘imiz bo‘ldi. Klinik sinovlar natijalariga ko‘ra, “Rutan” preparatining 2 xil — kattalar uchun “Rutan tabletkasi 100 mg” va bolalar uchun “Rutan tabletkasi 25 mg” shakllari ishlab chiqildi. Tibbiyot amaliyoti yurtimizdagi korxonalarda keng miqdorda ishlab chiqarilgan mazkur preparat bilan to‘la ta’minlandi. Ushbu natijalar juda ko‘p xalqaro jurnallarda chop etildi va dunyo hamjamiyati tomonidan tan olindi.

Eng muhimi shundaki, “Rutan” preparati gripp, SARS-2 viruslariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. U bir paytning o‘zida insonning immun tizimiga ta’sir etib, viruslarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiradi. COVID-19 ga qarshi yaratilgan “Rutan” preparati — ilmiy hamkorlik mahsuli. Kelajakda ilmda erishiladigan katta yutuqlar, albatta, xalqaro hamkorlik mahsuli bo‘ladi. Shu ma’noda aytish mumkinki, ilmda hamkorlikning roli katta.

Ilmiy izlanishlar davomida gerpes, xlamidiya infeksiyasi, gepatit, OITSga qarshi, qon to‘xtatuvchi, yaralarni tez bitirish xususiyatiga ega ko‘plab preparatlar yaratildi va ular asosidagi dori-darmon ayni paytda yurtimizning qator farmatsevtika korxonalarida ishlab chiqarishga tatbiq etilgan. Ular tibbiyotda qo‘llanilib, keng miqyosda ishlab chiqarilmoqda. Bu haqda ko‘p gapirish mumkin. Qilgan mehnatimiz ozgina bo‘lsa-da, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shgan bo‘lsa, demak, ilmga bag‘ishlangan umr zoye ketmabdi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.

Xususiy sektor

IMTIYOZ VA IMKONIYAT

NODAVLAT TA’LIM XIZMATLARINI KO‘RSATISH FAOLIYATI TAKOMILLASHADI

Ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, sog‘lom, yuksak ma’naviyatli yoshlarni voyaga yetkazish, o‘quvchilarda erkin, tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirish, yosh avlod ongiga vatanga sodiqlik va daxldorlik hissini singdirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotir. Xususan, sohaning huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadida “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingani tizimdagi muammolarni bartaraf etish, ta’lim sifatini yaxshilash va xalqaro hamjamiyat bilan uyg‘unlashgan holda olib borishga keng imkoniyat yaratmoqda. Shuningdek, pedagoglarning huquq va majburiyatlari, faoliyatining asosiy kafolatlari, mehnatiga yarasha haq to‘lash, rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari belgilandi. Bundan tashqari, pedagogning huquqlari, sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat himoyasida bo‘lishi qat’iy belgilab qo‘yildi.

Prezidentimiz joriy yil 20-noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisidagi nutqida ta’lim sifatini yanada oshirish, yoshlarimizni har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalashga qaratilgan siyosat izchil davom ettirilishini ta’kidladi.

Ayni maqsadda kelgusi yillarda bog‘chalarda qamrovni 80 foizga, oliygohlarda esa kamida 50 foizga yetkazish hukumat uchun asosiy vazifa bo‘lib qoladi. Xalqaro moliya institutlarining 61 million dollar mablag‘i hisobidan 2025-yilda 252 ta yangi bog‘cha barpo etiladi, shuningdek, 174 ta bog‘cha, 379 ta maktab ta’mirlanadi va yangidan quriladi.

Bu jarayonda xususiy sektor orqali o‘quvchi o‘rnini ko‘paytirish uchun maktab ochadigan tadbirkorlarga imtiyozli kredit ajratilishi nazarda tutilgani e’tiborga molik jihat. Imtiyoz va imkoniyatlar nafaqat sohada xususiy sektorning rivojlanishiga, balki sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Prezidentimizning joriy yil 22-noyabrdagi “Ta’lim sohasida xususiy sektor ishtirokini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ta’lim sohasida xususiy sektor ulushini yanada oshirish, ushbu yo‘nalishdagi tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoit yaratish hamda o‘qitishning innovatsion pedagogik shakllari, uslub va texnologiyalarini joriy etishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Ta’lim tizimida xususiy sektorga berilayotgan imkoniyat samarasi o‘laroq keyingi sakkiz yilda xususiy maktablar 27 tadan 500 taga, nodavlat bog‘chalar soni esa 250 tadan 30 mingtaga yetdi.

Mazkur qaror bilan mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydigan, belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha nodavlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini jihozlash va faoliyatini ta’minlash uchun olib kiriladigan zamonaviy o‘quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlar, o‘quv va ilmiy-metodik adabiyotlar, anjomlar va moddiy-texnik resurslar bojxona to‘lovidan ozod qilinadi.

— Shu paytgacha nodavlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyati uchun qator imtiyozlar berilgan edi, — deydi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi mutaxassisi Javohir Rashidov. — Xususan, ular ijtimoiy soliqdan tashqari barcha soliqdan ozod qilingandi. Lekin bu imtiyoz muddati 2025-yil yanvargacha etib belgilangandi. Yangi qaror bilan endi mazkur imtiyozlar muddati 2030-yil 1-yanvargacha uzaytirildi.

Hujjatda belgilangan yana bir e’tiborli jihat: ta’lim tizimiga xorijlik mutaxassislarni jalb etishda ham imkoniyatlar ko‘lami kengaytirilmoqda. Xususan, nodavlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan chet ellik o‘qituvchi va mutaxassislar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va ijtimoiy soliqdan ozod etiladi.

2025-yil 1-yanvardan boshlab doimiy asosda pedagogik faoliyat yuritish uchun jalb etiladigan xorijlik mutaxassislarga “A-2” o‘qituvchilar kirish vizasi beriladi. Shuningdek, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari tomonidan xorijdan jalb qilingan mutaxassislarga O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritish huquqi tasdiqnomasini berishda undiriladigan yig‘im miqdori bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz barobaridan bir barobarigacha kamaytiriladi.

Shu bilan birga, nodavlat maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarining rahbar va pedagog xodimlari uchun davlat budjeti mablag‘i hisobidan malaka oshirish tartibi joriy etiladi.

Lutfulla SUVONOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

2024-yil 14-dekabr, 254-son

Hozir o‘ylab qarasam, ko‘chada to‘yxona bilan dorixona ko‘payibdi. Yaqin yillarda birorta kutubxona qurilganiga ko‘zim tushmadi. Achinarlisi, oradan bir hafta o‘tib, to‘y sohibi yana xorijga ketganini eshitdim. Aytishlaricha, to‘y xarjidan ancha qarzga botibdi. Endi shuni to‘lash uchun yana qancha vaqt ter to‘kadi, bilmadim.

Toshoyna

TO‘YDAGI O‘YLAR

yoxud kambag‘allikning birgina “kishani” haqida

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Qashqadaryo vohasining to‘ylari haqida so‘z ketganda, ko‘pchilik “oh-ho” deb yuboradi. Falonchinikida muncha, pistonchinikida buncha doshqozonda osh damlanganiyu tonnalab go‘sht pishirilgani haqida maqtanib gapiriladi. Natijada yillab qarzdorlikdan chiqolmay yurganlar qancha.

“QIZ CHIQARGANGA QIRQ YIL TEGMA”

Qo‘shnim Saidazim aka ancha yildan beri kirakashlik bilan shug‘ullanadi. Shu sabab bo‘lsa kerak, mahallamizdagi deyarli ko‘pchilikning telefon raqamini yoddan biladi. Boshqalar ham uning raqamini yodlab olgan bo‘lsa, ajabmas. Chunki qishloq joyda eng kerakli odam bu — kirakash. U ham odamlarning yaxshi kuni bormi, bemorchilikmi — doim xizmatga tayyor. Kimdir qayoqqadir boradigan bo‘lsa, darrov Saidazim akaga murojaat qiladi. Baraka topkur, kechasimi-kunduzimi yo‘q demasdan, odamlarning uzog‘ini yaqin qilishga oshiqadi.

Odatdagi kunlarning birida men ham uning mashinasiga minib qoldim. Hali bir oz yurmasdan Saidazim aka mahallaning eng chekkasida yashaydigan Sobir aka (ismi o‘zgartirilgan) ertalab qo‘ng‘iroq qilib, xotini betobligi bois, ko‘chaga chiqolmasligini, ikkalasini uyidan olib ketishni iltimos qilganini aytib, shu tomon mashinasini burdi. O‘n daqiqalar yurilgach, Sobir akaning hovlisiga kirib bordik. Xotini betobligini hisobga olgan qo‘shnim ham ikkilanmay, mashinasini to‘g‘ri uy oldiga olib borib to‘xtatdi. Xonadon sohibi bir ko‘rinish berib, “hozir” degancha yana ichkariga kirib ketdi.

Rosti, mahalladosh bo‘lgani bilan ikki-uch bor to‘y qilganida kelganimni hisobga olmaganda, biror marta uyiga kirmagan ekanman. To‘rt xona, bir ayvondan iborat uy. Lekin qiziq tomoni, faqat bir xonaga eshik-deraza o‘rnatilgan. Qolgan uch xona paxsa devorligicha turibdi. Na eshigi bor, na derazasi. Go‘yo yangi ko‘chib kelingan xonadonga o‘xshaydi. Vaholanki, adashmasam, bu yerga uy egasi ko‘chib kelganiga yigirma yilga yaqinlashib qoldi. Oldinlari ikki xonadan iborat kichikroq uyi bo‘lardi. Uni buzib, yangisini qurganiga ham uch-to‘rt yil bo‘lgan. Bunday joyda yashagan kishi bemor bo‘lmay nima bo‘lsin degan o‘y o‘tdi.

Men o‘ylagan mulohazani haydovchi ham xayoliga keltirib turgan ekan.

— Uzoqdan katta uy bo‘lib ko‘ringani bilan qurilganicha turibdi-ku. Sobir ham ustaman deb faqat birov pul bersa qilib, o‘ziniki bepulligi uchun qo‘l urmagan, shekilli, — deya hayratini yashirolmadi.

Bu orada Sobir aka yangani yetaklab chiqib, mashinaga mindirdi. Er-xotin orqa o‘rindiqqa joylashib olgach, yo‘lga tushdik.

— Bu deyman, Sobir jo‘ra, uy shu holicha turibdi-ku, qurilganiga ancha bo‘ldi chog‘i, — deya Saidazim aka orqaga qarab qo‘ydi.

— Ha, biror kun bitib qolar, — deya xijolatomuz javob berdi Sobir aka.

— O‘zingiz ancha yildan buyon ustachilik qilasiz, ko‘p ish qo‘lingizdan keladi-ku, — deya suhbatga aralashdim.

— Ey nimasini aytasiz? Shu uyni bir amallab qurishga qurib oldim-u, ta’miriga imkonim yetmay qoldi. O‘zi avvaliga otam ikki xonali uy qurib berib, shu joyga ko‘chirgandi. Qolganini o‘zim eplab ketaman, degandim. Ammo odamning o‘ylagani doim bo‘lavermas ekan. Xudoga shukr, to‘rt qizim, bir o‘g‘lim bor. Eng kichigi o‘g‘il. Yoshlikda ana qilaman, mana qilaman bilan vaqtni o‘tkazib yuboribmiz. Bu orada qizlar voyaga yetib qoldi. Birinchisini turmushga berdim. Ancha-muncha mablag‘im ketdi. Bir oz qarz ham bo‘lib qoldim. Uning o‘rnini qoplayman deb qattiq ishladim. Qarzlardan qutulib, ozgina pul ham orttirdim deganimda, ikkinchi qizimning to‘yi bo‘ladigan bo‘ldi. Qiz chiqarganga qirq yil tegma, deb bejiz aytilmagan ekan. Iloj qancha, el qatori to‘y qilish kerak. Yana sarf-xarajat. Bir kunlik to‘yni-ku amallasa bo‘lar, lekin kelinning ko‘rpa-yostig‘idan tortib, qudalarga sarpo deganday turli narsalar odamni charchatib yuborarkan. Xullas, to‘rt qizni uzataman deb bir so‘m orttirolmadim. O‘tgan yili kichigini uzatdim. Hisoblab ko‘rsam, yetmish million so‘mdan ortiq pul sarflabman. Haligacha qarz to‘lash bilan ovoraman. Buyog‘iga xotin ham kasal bo‘lib qoldi. Yaxshiyam birgina buzog‘imiz qolgan ekan, shuni kecha bozorda sotdim. Dori-darmonga yetib qolar degan umidda boryapmiz.

— Hali qutuldim, deb o‘ylamang, ikkinchi qizning bolasiga beshik ham oborish kerak. Yaqinda quda xola kelgandi, gurung orasida ikki-uch marta kesatib o‘tdi, — deya yanga horg‘in tovushda gapga aralashib qo‘ydi.

— Ha, endi beshik ko‘tarib, umrim xazon bo‘ladi chog‘i, — deya Sobir aka uf tortib qo‘ydi.

— Shu ortiqcha xarajat nima kerak ekan-a? Ana, eslaringizda bo‘lsa, karantin payti Ahad amaki kelin tushirdi. Shunda bor-yo‘g‘i besh kilo guruch damlab, osh qilingandi, — dedi er-xotinga achingancha Saidazim aka. — Ko‘pi bilan yigirma chog‘li odam keldi. Shu bilan hammasi o‘tdi. Mana, ikki yosh baxtli oila bo‘lib yashab yuribdi. Birovdan kami yo‘q. Menimcha, ko‘rpaga qarab oyoq uzatgan ma’qul. Odamlar unday qilyapti, bunday qilyapti, birovdan kam bo‘lmayman, deb o‘ziga og‘irlik orttirish shartmas. Undan ko‘ra uy-joyni yaxshilash, ro‘zg‘orni butlash, salomatlikka qarash kerak.

Yo‘l gurungi meni ancha vaqtgacha o‘ylantirdi. Yoshi ellikka yaqinlashib qolgan Sobir akaga achinmaslikning iloji yo‘q. Yashab turgan xonadoni bir ahvolda bo‘la turib, el chaqirib, osh tarqatish qay mantiqqa to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, birgina xonada yetarli sharoitning o‘zi yo‘q. Qishning sovug‘ida biror mehmon kelib qolsa, qanday holatga tushishini tasavvur qilib ko‘ring. Bir kunlik to‘yning oqibati oilani qanchalik mushkul vaziyatga tushirib qo‘yadi? Hali yana uch qizning bolasiga beshik olib borishi lozim. Buyog‘i o‘g‘li ham yaqinda maktabni tugatadi. Ustalik ortidan ro‘zg‘or tebratadigan Sobir aka qachon kambag‘allikdan chiqib, qachon farovon yashaydi?

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

KUYOV KURKA GO‘SHTI YERMISH...

— Kambag‘allikni qisqartishning shartlaridan biri bu — to‘ylarni tartibga solish, — deydi qamashilik keksa ijodkor O‘rolboy Qobilov. — El orasida ko‘p yuramiz. To‘y-tantanalar kimo‘zarga o‘tkazilyapti. Isrofgarliklarni ko‘rib, achinasan kishi. Tunov kuni qishloqda bir kishi to‘y qildi. O‘zi ikki o‘g‘li bilan chet elda ishlab yurardi. Tantana to‘yxonada bo‘ldi. Dasturxonda bo‘sh joy yo‘q. Bir tomonda yaxna go‘sht, bir tomonda tovuq go‘shti, baliq go‘shti, osh, sho‘rva. To‘kinlik yaxshi, lekin me’yorida bo‘lsagina yaxshi.

Eng qizig‘i, haligi taomlarga qo‘l uzatmasimizdan san’atkorga navbat berildi. Birdan ovoz kuchaytirgichlar ishga tushib, quloqni qomatga keltirib, ashula yangray boshladi. Koshki biror so‘zini anglolsang. Shovqindan boshga og‘riq kirib, ishtaha ham yo‘qoldi. Ikki-uch bor ovozni pasaytirishni iltimos qildik, qani tushunsa. Oxiri chiqib ketishga majbur bo‘ldik. Biz tengilar o‘tirolmadi. Birgina bu to‘yxonada emas, aksariyatida shunday.

Hozir o‘ylab qarasam, ko‘chada to‘yxona bilan dorixona ko‘payibdi. Yaqin yillarda birorta kutubxona qurilganiga ko‘zim tushmadi. Achinarlisi, oradan bir hafta o‘tib, to‘y sohibi yana xorijga ketganini eshitdim. Aytishlaricha, to‘y xarjidan ancha qarzga botibdi. Endi shuni to‘lash uchun yana qancha vaqt ter to‘kadi, bilmadim.

Bundan tashqari, yangi paydo bo‘layotgan udumlar ham odamlarning iqtisodini orqaga

tortmoqda. Yaqinda eshitib qoldim: biz tomonda kuyov kurka go‘shti yeyarmish degan bemaza odat paydo bo‘libdi. Kuyov to‘ydan oldin qaynotasinikiga besh-o‘n o‘rtog‘i bilan mehmonga kelarkan. Ular kurka go‘shti bilan siylanarkan. Shunga ham kamida ikki-uch million so‘m sarflanarkan. Bilmadim, yigit kishining or-nomusi qayda qoldi?!

Yoshligimizda to‘ylar ancha ixcham o‘tkazilardi. Ayniqsa, qiz chiqarish juda oddiy edi. Hozir to‘ylarning farqini bilib bo‘lmay qoldi. Uyiga kirib ko‘rsangiz, tuzukroq sharoiti yo‘q, lekin to‘yda borini sochadi. Bu maqtanishmi, boshqa narsami, anglash mushkul.

O‘N TALABANING KONTRAKT PULI

— Qancha gapirilmasin, tushuntirish olib borilmasin, baribir to‘ylarni tartibga solish qiyin bo‘lyapti, — deydi Qashqadaryo viloyati hokimining davlat tili bo‘yicha maslahatchisi Nuriddin Egamov. — To‘ylar faqat kimo‘zar yoki maqtanish uchun qilinadigan bo‘lib qoldi. Aniq hisob-kitob qilinsa, bir to‘y uchun kamida 50-60, ba’zilarida 250-300 million so‘m sarflanadi. Kimgadir maqtanmoqchi bo‘lsangiz, shunchaki isrofgarlik qilib, bir kunda yedirib-ichirishga emas, biror yetishmovchiligi mavjud talabaning kontrakt pulini to‘lab yuboring, bir kishining ko‘nglini tog‘dek yuksaltirgan bo‘lasiz. Siz qilayotgan bir kunlik xarajatning o‘rniga o‘n talabaning bir yillik kontrakt pulini to‘lab, yil davomida bilim olish imkoniyati bor.

Bir kuni o‘rtog‘im aytib qoldi: “Uyga mehmon keladigan bo‘ldi. O‘g‘lim bilan bozorga chiqib, ba’zi narsalarni sotib ola boshladik. Bir qancha narsani olib bo‘lgach, o‘g‘lim ikkita daftar olib berishimni so‘radi. Boshqa safar olib berishimni, pulim qolmaganini bahona qildim. Narsalarni mashinaga joylab, o‘g‘limni shu yerda qoldirdim-da, spirtli ichimliklar do‘koniga yo‘l oldim. Bu savil ham qimmat ekan. Uch-to‘rtta shundan olib, mashinam tomon qaytyapman-u, xayolimga bir gap lop etib urilsa bo‘ladimi? Birrovgina kelib-ketadigan mehmon uchun shuncha pul sarflabman, lekin o‘g‘lim uchun ikki dona daftar olishga pul chiqargim kelmabdi-ya. O‘zimdan nafratlanib ketdim. Bu ham mayli, uyga kelgach, besh yoshli qizim bozordan keltirilgan mevalar orasida nokka ko‘zi tushib, bir dona yemoqchi bo‘lgandi. Er-xotin: “Bular mehmon uchun olingan”, deya bolaga tanbeh bersak bo‘ladimi. Bittagina nokni bolamdan qizg‘anib, mehmonga to‘kib solganim uchun o‘zimga o‘zim tushunolmay hayronman”.

Bugungi to‘ylardagi bizni ajablantirgan yana bir jihat shuki, katta-kichikning bir-biriga hurmati, to‘y madaniyati, qadriyatlar unutilib borayotir. Isrofgarlikka barcha birdek hissa qo‘shmoqda, desak ham bo‘ladi. Misol uchun, hurmat qilib biror kishi to‘yga aytildimi, kelgach, yigirma daqiqa yoki yarim soatda turib ketvoradi. O‘zi aslida to‘y sohibining yarim soat vaqti mehmonlarni joylashtirishga ketadi. Birinchi ovqat keltirilmasdan to‘yxona bo‘shab qoladi. Ikkinchi ovqat esa suzilmay, uvol bo‘ladi. Bunday hol juda ko‘p yuz bermoqda. Kambag‘allikdan farovonlik sari qadam tashlar ekanmiz, eng avvalo, behuda sarf-xarajatlarning oldini olishimiz, ixcham, kamchiqim to‘ylar o‘tkazishga odatlanishimiz kerak.

KITOBSIZ UY

Bundan ikki-uch yil oldin televideniyeda ishlaydigan hamkasbim olisroq tumanda keksa kishi haqida ko‘rsatuv tayyorlash uchun borayotganini aytib, hamroh bo‘lishimni iltimos qildi. Birga bordik. Hamkasbimning aytishicha, otaxon yaqinda to‘qson besh yoshga to‘ladi. Shu munosabat bilan farzandlari ko‘rsatuv tayyorlashni iltimos qilgan. Tez orada boboning yubiley to‘yiga qo‘shib, nabiralarining xatna to‘yi ham katta qilib o‘tkazilishini aytib o‘tdi.

Ancha yo‘l yurgach, har bir uyning orasi kamida bir kilometr bo‘lgan, keng adirlikda joylashgan qishloqqa kirib bordik. Biz kirib borgan hovli ham boshqalarnikidan qolishmasdi. Eng qizig‘i, hech bir hovlining devori, darvozasi yo‘q. Boboning o‘g‘li kutib oldi. Ichkariga kirib, oqsoqol bilan salomlashib, maqsadimizni tushuntirdik. Suhbat jarayonida otaxon yoshiga nisbatan ancha dadil ekanini angladik. Shu yoshda ko‘rish qobiliyati ham yaxshi ekan. Hamrohim ikki-uch xil rakursda tasvirga olgach, yana qanday holatda suratga olish haqida o‘ylanib qoldi. Shunda boboning ko‘zi o‘tkirligini inobatga olib, uni kitob o‘qib o‘tirgan holatda tasvirga olish mumkinligini eslatdim. Bu taklif sherigimga ma’qul keldi. Endi faqat kitob topilsa bo‘lgani.

Oradan o‘n, yigirma, o‘ttiz daqiqa o‘tdiki, hayhotdek uydan bir dona kitob chiqmadi. Oxiri bo‘lmagach, qo‘shninikiga borishdi. Shuncha izlanishlar behuda ketib, bittagina kitob topib kelisholmadi. Bu holatdan hayratda qolgancha tasvirga olish ishlarini bir amallab yakuniga yetkazdik. Menga bu uy negadir chirog‘i o‘chgan, zimistondek bo‘lib tuyuldi.



“ORADAN O‘N, YIGIRMA, O‘TTIZ DAQIQA O‘TDIKI, HAYHOTDEK UYDAN BIR DONA KITOB CHIQMADI. OXIRI BO‘LMAGACH, QO‘SHNINIKIGA BORISHDI. SHUNCHA IZLANISHLAR BEHUDA KETIB, BITTAGINA KITOB TOPIB KELISHOLMADI. BU HOLATDAN HAYRATDA QOLGANCHA TASVIRGA OLISH ISHLARINI BIR AMALLAB YAKUNIGA YETKAZDIK. MENGA BU UY NEGADIR CHIROG‘I O‘CHGAN, ZIMISTONDEK BO‘LIB TUYULDI.”

Oradan bir hafta o‘tgach, hamkasbimning qistovi bilan boboning to‘yiga bordik. To‘yga kelayotganlarning oxiri ko‘rinmaydi. Yero‘choq ustida qaynayotgan qozonlarni erinmay sanashga tushaman. Jami 17 ta qozonda go‘sht pishmoqda, 22 ta qozonda osh. Kattagina, usti yopiq yuk mashinalari qator qilib qo‘yilgan. Ulardan birida xirmon qilib uyilgan pishgan go‘sht mehmonlarga tortilmoqda. Birida non, yana birovida gazli ichimliklar. Shu payt xayolimdan “Eh-he, buncha mahsulotning puliga qancha kitob xarid qilish mumkin! Qolaversa, butun boshli kutubxona qurib, ichini turli adabiyotlarga to‘ldirsa bo‘ladi-ku”, degan o‘y o‘tdi. Xonadonidan atigi bir dona kitob chiqmagan kishining to‘yidagi holatga achinishni ham, kulishni ham bilmaydi odam.

QAROR BOR, IJRO-CHI?

To‘y bo‘lgani yaxshi. Lekin hamma narsa me’yorida bo‘lsa, foydadan xoli emas. Yuqoridagi tahlillarda qisman isrofgarlik haqida so‘z yuritildi. Bir to‘yning chiqimini hisoblasak, eh-he, adog‘iga yetish mushkul. Bundan tashqari, “kelinnavkar”, “chorlar”, “ota ko‘rdi”, “sep yoydi”, “quda chaqirdi”, “kuyov chaqirdi”, “kelin chaqirdi”, “tog‘ora yuborish” va hokazo udumlar ham bor. Lekin bularni tartibga olish bizning burchimiz.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi kengashi va Senat kengashining “To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori imzolangan. Lekin buning ijrosi deyarli sezilmayapti. Aksariyat joylarda ayrim mahalla raislari, jamoat faollarining bundan xabari ham yo‘q.

Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi, to‘g‘ri ovqatlanish targ‘ib qilinayotgan paytda to‘yxonayu dorixonalarning ko‘paygani bejiz emasga o‘xshaydi. Qolaversa, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan kambag‘allikdan farovonlik sari qadam tashlanar ekan, bunga to‘siq bo‘layotgan eng muhim omil tartibsiz to‘ylar ekanini vaqtida anglashimiz zarur. Shuningdek, qo‘shma qaror ijrosi amalda tatbiq etilmas ekan, isrofgarlik to‘xtashiga hech kim kafolat berolmaydi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 4422.
39932 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bahor Xidirova
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 00:55 Topshirildi — 01:10

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05